



O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta
Maxsus Ta`lim Vazirligi



Buxoro Davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'teti

Iqtisodiy ta`lim va turizm kafedrası

Himoyaga ruxsat etildi

Kafedra mudiri _____ i.f.n. S.U.Tojiyeva

«_____» _____ 2012 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu:“ OILAVIY BIZNESNING MOHIYATI VA UNI
O`QITISH TEXNOLOGIYASI”**

Bajardi: 5140900 – “Kasbiy ta`lim” (ijtimoiy – iqtisodiy soha)
yo`lanishi kunduzgi bo`lim 4 kurs “E” guruhi talabasi
Rasulov Jamshid

Ilmiy rahbar, o`qituvchi

L.B. Navro`z-zoda

Himoya sanasi

D.A.K.ning bahosi

«_____» _____ 2012 yil

D.A.K.ning xulosasi

Buxoro - 2012

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta
Maxsus Ta`lim Vazirligi**

Buxoro Davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'teti

Iqtisodiy ta`lim va turizm kafedrası

**Mutaxassialik: 5140900 – “Kasbiy ta`lim” (ijtimoiy – iqtisodiy soha)
yo`lanishi**

“Tasdiqlayman”

Kafedra mudiri _____

«_____» _____ 2011 й.

Rasulov Jamshidning bitiruv malakaviy ishi

T O P S H I R I Q

**bitiruv malakaviy ishi mavzusu: “Oilaviy biznesning mohiyati va uni o`qitish
texnologiyasi”**

1.Universitet bo`yicha buyruq bilan tasdiqlangan_____

2.Tugatilgan ishning talaba tomonidan topshirish muddati_____

3.Tushuntirish xatinig tarkibi_____

bitiruv malakaviy ishiga tegishli savollar ro`yxati:

4.Grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning ko`rsatkichi bilan)

5.Ilmiy maslahatchilar: B.N. Navro`z-Zoda

6.Ilmiy rahbar: L.B. Navro`z-zoda

7.Vazifani topshirish sanasi_____

8. Vazifa ijroga qabul qilindi_____

Talaba imzosi_____

Kafedra mudiri imzosi_____

Eslatma: Bu vazifa tugallangan ishgailova

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| Kirish..... | 4 |
| I.BOB. Oilaviy biznesning nazariy asoslari..... | 7 |
| 1.1. «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi mohiyati va uning iqtisodiy tadbirlari..... | 7 |
| 1.2. Oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy asoslari, faoliyat yo'nalishlari va erkinlik kafolatlari..... | 18 |
| 1.3. Xususiy adirkorlikni merosiy shakli sifatidagi oilaviy biznesning mohiyati..... | 25 |
| 1.4. Mustahkam oilaning moliyaviy asoslari..... | 32 |
| II. BOB. “Oilaviy biznesning mohiyati” mavzusini o`qitish uslubiyoti..... | 40 |
| 2.1. “Oilaviy biznesning mohiyati” mavzusini o`qitishning texnologik modelini yaratish..... | 40 |
| 2.2. “Oilaviy biznesning mohiyati” mavzusining ko`rgazmali elektron taqdimoti uslubida o`qitish..... | 54 |
| Xulosa..... | 67 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati..... | 70 |

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezident I.Karimov ta'kidlaydiki: "Biz 2012-yilni yurtimizda "Mustahkam oila yili" deb e'lon qildik. Bu o'rinda gap aynan shular hisobidan pirovard natijada oila farovonligini va shu asosda butun xalqimiz farovonligini yanada oshirish haqida bormoqda. Shu kunlarda ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalarni amalga oshirish va hayotga joriy etish bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish ishlari nihoyasiga yetkazilmoqda. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, mazkur dasturni amalga oshirish uchun 2012-yilda moliyalashning barcha manbalari hisobidan qariyb 4 trillion 400 milliard so'm va 370 million dollardan ortiq mabla yo'naltirilishi rejalashtirilmoqda. Bu mablaning 60 foizga yaqinini davlat mabzalari, 25 foizini tijorat banklari kreditlari, qariyb 15 foizini mas'ul ijrochilarning o'z mabzalari hamda 360 million dollardan ortiqni xalqaro institutlar va donor mamlakatlar mabzalari tashkil etadi"¹. «Mustahkam oila yili» Davlat dasturini amalga oshirish va "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi" qonunni qabul qilinishi mamlakatimizda, avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada kengayishi va rivojlanishiga, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining oshishiga muhim omil bo'ladi. Ayniqsa xususiy tadbirkorlikni merosiy shakli sifatidagi oilaviy biznesni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash bugungi kunning dolzarb iqtisodiy masalasi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi bo'lib oilaviy tadbirkorlikni o'rganish bo'yicha nazariy bilimlarni hosil qilish va mazkur mavzuni o'qitishning uslubiyotini yoritishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish quyidagi vazifalar echimi bilan bog'liq:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga baishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. http://www.press-service.uz/uz/news/show/main/vvistuplenie_prezidenta_respubliki_uz_15/

- «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi mohiyati va uning iqtisodiy tadbirlarini izohlash.
- Oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy asoslari, faoliyat yo'nalishlari va erkinlik kafolatlarini aniqlash.
- Xususiy tadbirkorlikni merosiy shakli sifatidagi oilaviy biznesning mohiyatini tafsiloti.
- Mustahkam oilaning moliyaviy asoslarini yoritish.
- “Oilaviy biznesning mohiyati” mavzusini o`qitishning texnologik modelini yaratish.
- “Oilaviy biznesning mohiyati” mavzusining ko`rgazmali elektron taqdimoti uslubida o`qitish.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti – xususiy tadbirkorlikni merosiy shakli sifatidagi oilaviy biznesning mohiyati.

Bitiruv malakaviy ishi ob`ekti bo`lib, oilaviy tadbirkorlik hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanadi; uning yoritilish darajasi ochib beriladi, izlanishning maqsad va vazifalari shakllantiriladi, olingan natijalarning ahamiyati aniqlab olinadi; asosiy xulosalarining realizastiyasi bo'yicha axborotlar keltiriladi.

Birinchi bob “Oilaviy biznestining nazariy asoslari” deb nomlangan bo`lib, unda «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi mohiyati va uning iqtisodiy tadbirlari, oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy asoslari, faoliyat yo'nalishlari va erkinlik kafolatlari, xususiy tadbirkorlikni merosiy shakli sifatidagi oilaviy biznesning mohiyati, mustahkam oilaning moliyaviy holatini izohlashga bag`ishlangan.

Ikkinchi bob “Oilaviy biznesning mohiyati” mavzusini o`qitish uslubiyoti” deb nomlanib, unda “Oilaviy biznesning mohiyati” mavzusini o`qitishning

texnologik modelini yaratish hamda “Oilaviy biznesning mohiyati” mavzusining ko`rgazmali elektron taqdimoti uslubida o`qitish masallari yoritiladi.

Xulosa qismida oilaviy biznesning mohiyati va uni o`qitish bilan bog`liq asosiy xulosa va tavsiyalarlar shakllantirilgan.

I.BOB. OILAVIY BIZNESTINING NAZARIY ASOSLARI

1.1.«MUSTAHKAM OILA YILI» DAVLAT DASTURI MOHIYATI VA UNING IQTISODIY TADBIRLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga baishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaydiki: "Biz 2012-yilni yurtimizda "Mustahkam oila yili" deb e'lon qildik. Bu o'rinda gap aynan shular hisobidan pirovard natijada oila farovonligini va shu asosda butun xalqimiz farovonligini yanada oshirish haqida bormoqda. Shu kunlarda ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalarni amalga oshirish va hayotga joriy etish bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish ishlari nihoyasiga yetkazilmoqda. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, mazkur dasturni amalga oshirish uchun 2012-yilda moliyalashning barcha manbalari hisobidan qariyb 4 trillion 400 milliard so'm va 370 million dollardan ortiq mabla yo'naltirilishi rejalashtirilmoqda. Bu mablaning 60 foizga yaqinini davlat mablalari, 25 foizini tijorat banklari kreditlari, qariyb 15 foizini mas'ul ijrochilarning o'z mablalari hamda 360 million dollardan ortiini xalqaro institutlar va donor mamlakatlar mablalari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 13 dekabrda F-3760-son farmoyishi bilan tuzilgan Respublika komissiyasi tomonidan manfaatdor vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, jamoat hamda nohukumat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 27 fevraldagi PQ-1717-son qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur Qarorda qayd etiladiki, «Oila sog'lom ekan — jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan — mamlakat barqaror» degan insonparvar tamoyildan kelib chiqqan holda, quyidagilar «Mustahkam oila yili» Davlat dasturini amalga oshirishning eng muhim yo'nalishlari etib belgilangan:

bugungi kun talablarini hisobga olgan holda qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, amaldagi qonun hujjatlariga oila institutini

rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, yangi qonunlar, qoida va normalarni ishlab chiqish, bu masalaga jamiyatimiz e'tiborini yanada kuchaytirish;

yosh oilalarga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, moddiy va ma'naviy jihatdan keng qo'llab-quvvatlash, shu jumladan qulay va shinam uy-joy bilan ta'minlash, zarur imtiyoz va afzalliklar berish;

jamiyatimiz va kundalik hayotimizda mahalla institutining rolini yanada kuchaytirish va maqomini oshirish, Mustahkam oila yili maqsad va vazifalarini hayotga tatbiq etishda mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ahamiyatini, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda shakllantirishda ularning ta'sirini kuchaytirish, yosh oilalarga zarur ko'mak va yordam berish;

oilalarga, birinchi navbatda, ehtiyojmand oilalarning muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan g'amxo'rlikni yanada kuchaytirish, ularga moddiy yordam ko'rsatish va farzandlarni tarbiyalashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, munosib ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, bunda oilani mustahkamlashda asosiy yukni o'z elkasiga olgan ayollarga alohida e'tibor qaratish;

«Sog'lom ona – sog'lom farzand» tamoyiliga muvofiq oila salomatligini, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish;

jamiyatimizning ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mustahkamlash, jamiyatimizda yuksak ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan va kuchayib borayotgan turli xil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning o'rnini va ahamiyatini oshirish;

jismonan sog'lom, ma'naviy etuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila institutining ta'lim hamda tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali hamkorligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 27 fevraldagi PQ-1717-son Qarori ilovasida ishlab chiqilgan «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi keltirilgan. «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi 8 ta quyidagi ustuvor vazifalardan iborat:

I. Bugungi kun talablarini hisobga olgan holda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan qonunchilik normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu masalaga jamiyatimiz e'tiborini yanada kuchaytirish.

II. Yosh oilalarga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, moddiy va ma'naviy jihatdan yosh oilalarni keng ko'lamda qo'llab-quvvatlash, shu jumladan qulay va shinam uy-joy bilan ta'minlash, zarur imtiyoz va afzalliklar berish.

III. Jamiyatimiz va kundalik hayotimizda mahalla institutining rolini yanada kuchaytirish va maqomini oshirish, Mustahkam oila yili maqsad va vazifalarini hayotga tatbiq etishda mahalla va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ahamiyatini, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda shakllantirishda ularning ta'sirini kuchaytirish, yosh oilalarga zarur ko'mak va yordam berish.

IV. Oila, birinchi navbatda, ehtiyojmand oilalarning muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan g'amxo'rlikni yanada kuchaytirish, ularga moddiy yordam ko'rsatish va farzandlarni tarbiyalashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, munosib ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, bunda oilani mustahkamlashda asosiy yukni o'z elkasiga olgan ayollarga alohida e'tibor qaratish.

V. «Sog'lom ona — sog'lom farzand» tamoyiliga muvofiq oila salomatligini, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish.

VI. Jamiyatimizning ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mustahkamlash, jamiyatimizda yuksak ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan va kuchayib borayotgan turli xil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning o'rni va ahamiyatini oshirish.

VII. Jismonan sog'lom, ma'naviy etuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila institutining

ta'lim hamda tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligi mexanizmini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali hamkorligini ta'minlash.

VIII. «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi maqsad va vazifalari hamda uni amalga oshirishning borishi to'g'risida keng axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish.

2012 yilda Dastur chora-tadbirlarini amalga oshirishning yakuniy xarajatlari: 1 478,7 mlrd. so'm va 114,0 mln. Dollarni tashkil etadi. 1-jadvalda bu mablag'larning moliyalashtirish manbalari ko'rsatilgan.

1-jadval. 2012 yilda «Mustahkam oila yili» Davlat chora-tadbirlarini amalga oshirishning yakuniy xarajatlari

| T/r | Moliyalash manbalari | Xarajatlar (mln. so'm) | Xarajatlar (AQSh dollarida) |
|------------|---|-------------------------------|------------------------------------|
| 1 | Byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari | 238,6 mlrd. so'm | 3,1 mln. dollar |
| 2 | Ijrochilar va homiylar mablag'lari | 219,4 mlrd. so'm | 1,8 mln. dollar |
| 3 | Tijorat banklari kreditlari | 1020,6 mlrd. so'm | 0,2 mln. dollar |
| 4 | Xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari mablag'lari | | 95,9 mln. dollar |
| 5 | Grantlar | 0,05 mlrd. so'm | 13,0 mln. dollar |
| | Jami: | 1 478,7 mlrd. so'm | 114,0 mln. dollar |

«Mustahkam oila yili» Davlat dasturida keng ko'lamli iqtisodi chora-tadbirlar ko'zga ko'ringan. Ularning mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tamiz:

1. Respublika shaharlarida yosh oilalarga sotish uchun 2012-2013 yillarda 48 xonadonli 100 ta uylarni qurishni nazarda tutuvchi «Yosh oilalarga turar joy» dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularga Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan oshmaydigan foizli stavka bo'yicha ipoteka kreditlarini 15 yilgacha muddat bilan berish. **Xarajatlar (mln. so'm)** 2012 yilda 192 000,0 so'm. **Moliyalash manbalari:** Tijorat banklari kreditlari, ijrochilar va aholi mablag'lari.

Taqdim etiladigan hujjat shakli, amalga oshirish mexanizmi va kutilayotgan natija. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yosh oilalarga turar joy» dasturini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha quyidagilarni ko'zda tutuvchi qarori loyihasi: har yili uy joyga muhtoj kamida 2400 yosh oilani turar-joy bilan ta'minlash; qurilish va yosh oilalarga ipoteka kreditlarini berish uchun resurslarni shakllantirish manbalari va mexanizmi; mahalliy ijroiya hokimiyati organlari mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda transfertlar ajratish yo'li bilan yangi qurilgan uylardagi xonadonlardan bir qismini etim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga taqdim etish.

2.Yosh oilalarga moddiy yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va quyidagilar orqali amalga oshirish (Jami 114 620,0 shundan):

- ❖ yosh oilalarga, ularning tadbirkorlik faoliyatini moliyalash uchun mikro kreditlar va grantlar taqdim etish (68 210,0 mln.s.);
- ❖ Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes-loyihalarini moliyalash (28 310,0);
- ❖ har bir qishloq tumanida 50 nafardan kam bo'lmagan yosh oilalarga — bir boshdan qoramol va 200 nafardan kam bo'lmagan yosh oilalarga— 20 tadan uy parrandasi berishni ta'minlash(18 100,0).

3.Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar, jumladan mebel, murakkab maishiy texnika va boshqalarni xarid qilish uchun imtiyozli foiz stavkasi bo'yicha, eng kam ish haqining 200 baravari miqdorida uch yilgacha muddatga beriladigan «Yosh oilalarga iste'mol kreditlari» dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish. 60 000,0. Tijorat banklari kreditlari. Yosh oilalarga iste'mol kreditlari» dasturini amalga oshirish bo'yicha tijorat banklari qarorlari. Yosh oilalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash, mamlakatimizning iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirish.

4. Quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, ularga keng ko'lamli moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish:

- ✚ 2012 yilning 1 aprelidan boshlab, byudjet mablag`lari hisobidan yosh oilalar a'zolarining soliq solinadigan daromadlarini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni (muzlatgich, televizor, mebel va hokazo) xarid uchun olingan iste'mol kreditini qaytarishga yo'naltirilgan mablag`iga teng miqdorda jismoniy shaxslar daromad solig`idan ozod etish (2 900,0);
- ✚ yosh oilalar a'zolari uchun mulk va er solig`iga 3 yildan oshmagan muddatga soliq stavkalarini ikki barobarga kamaytirish (1 900,0);
- ✚ «Mehribonlik» uyining 30 yoshgacha bo'lgan va endi oila qurayotgan har bir bitiruvchisi uchun mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yotoqxona mebeli ko'rinishidagi maxsus sovg`ani ta'sis etish (800,0). Byudjet va homiylar mablag`lari.

5. Ta'lim muassasalari bitiruvchilari, muddatli harbiy xizmatdan zaxiraga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar va boshqalarni ish bilan ta'minlash uchun korxonalar va tashkilotlarda kamida 107 ming ish o'rnini zaxira qilib qo'yish. Kamida 16 ming nafar ishsiz yoshlarni mehnatga tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek qariyb 52 ming nafar yoshlar uchun haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish (900,0). Ijrochilar mablag`lari.

6. Quyidagilar ko'magida yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish:

- Kasaba uyushmalari Federastiyasi Kengashi ko'magi bilan asosan qishloq joylarda yosh oilalar uchun 1500 ta yangi ish o'rinlarini tashkil qilgan holda kichik korxonalar barpo etish (100,0); Ijrochilar mablag`lari
- O'zbekiston Ishbilarmon ayollar uyushmasi yordamida 100 ta kichik oilaviy korxonalar tashkil etish va kamida 300 nafar xotin-qizni ishga joylashtirish (280,0). Ijrochilar mablag`lari.

7. Qishloq joylardagi mahallalarda mahalla hududida yashayotgan va maishiy xizmatlar (sartaroshlik, tikuvchilik, poyabzal, maishiy va tashkiliy-texnika va boshqalarni tuzatish ustasi) ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarni 2012 yilning 1 aprelidan boshlab, uch yil muddatga qayd etilgan soliq to'lashdan ozod etish orqali ish o'rinlarini tashkil qilishni rag'batlantirish. Tasdiqlash— 2012 yilning I — choragi, amalga oshirish - 2012— 2015 yillar. 2012 yilda 2 295,0. Byudjet mablag'lari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasini yanada oshirish, ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish, aholini sifatli xizmat turlari bilan ta'minlash.

8. «Navro'z» va «Mustaqillik» bayramlari arafasida o'tkaziladigan hasharlardan «Mahalla» jamg'armasiga kelib tushadigan mablag'larning kamida 50 foizini muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida yo'naltirishni amalga joriy etish. 7 500,0. «Mahalla» jamg'armasi. Vazirlar Mahkamasining qarori. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan «Mahalla» jamg'armasi mablag'lari hisobidan muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tartibini tasdiqlash.

9. Mahallalarda, ayniqsa chekka qishloq joylarda yashayotgan yolg'iz qariyalar, nogironlar, kam ta'minlangan fuqarolarga ularning uylarini ta'mirlash va rehabilitatsiya vositalarini sotib olish (nogironlik aravachalari, eshitish apparatlari va hokazolar) orqali yordam ko'rsatish. 3 500,0. Byudjet, ijrochilar va homiylar mablag'lari.

10. Barcha viloyatlar markazlarida, Nukus va Toshkent shaharlarida, shuningdek respublika va hududiy ahamiyatga ega shaharlarda, shaharchalar va boshqa aholi yashash punktlarida mavzalar ichi hududlarini obodonlashtirish, shu jumladan, yo'llar va yo'laklarni ta'mirlash, bolalar o'yin maydonchalarini qurish va rekonstruktsiya qilish. 10 000,0. Ijrochilar va homiylar mablag'lari.

11. 2012—2016 yillarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahallalar)ning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashning quyidagilar nazarda tutilgan Dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish:

- ✓ mavjud binolarni rekonstruktsiya qilish (ta'mirlash) hisobidan yoki joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladigan binolar (binolarning bir qismi) bilan ta'minlash, shundan 2012 yilda — o'zini o'zi boshqarish organlaridan 500 tasiga berish (10 000,0); «Mahalla» jamg'armasi va homiylik mablag'lari.

Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash uchun kreditlar ajratish (60 041 mln.s.);

Ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb etish uchun ularga kreditlar berish (365 364 mln.s.);

Qoramolni xarid qilish uchun shaxsiy tomorqa va dehqon xo'jaliklariga mikrokreditlar ajratish (62 123 mln.s.);

Meva-sabzavot mahsulotlarini etishtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, parrandachilikni, asalarichilik va baliqchilikni rivojlantirish uchun kichik biznes sub'ektlari, dehqon, fermer va shaxsiy yordamchi xo'jaliklariga kreditlar ajratish (202 637 mln.s.);

1-Rasm. Xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarish va oilaviy biznesga jalb qilish, oilalarning farovonligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish yo'llari

- ✓ mustahkamlash bo'yicha hududiy dasturlarini tasdiqlash to'g'risidagi qarorlari. «Mahalla» jamg'armasi va «Davarxitektqurilish» bir to'plamdan kompyuter texnikasi va mebel bilan ta'minlash. 2 000,0. «Mahalla» jamg'armasi va homiylik mablag'lari. Joylardagi ijroiya hokimiyati organlarining 2012—2016 yillarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining (mahallalar) moddiy texnik bazasini qo'mitasining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari binolarining namunaviy loyihasini tasdiqlash to'g'risidagi qo'shma qarori.

11. Kam ta'minlangan oilalarning maktabda o'qiydigan 576 ming nafar farzandlarini qishki kiyim to'plami va bosh kiyimlari bilan bepul ta'minlash. 2012 yilning III-IV choraklari. 27 862,6. Byudjet mablag'lari.

12.492 ming nafarga yaqin birinchi sinf o'quvchilarini 12 nomdagi o'quv anjomlari to'plami, shuningdek, uyda ta'lim oladigan 10,7 ming nafar imkoniyati cheklangan bolalarni o'quv anjomlari, shu jumladan, 512 ta maxsus doska va 472 ta maktab partasi bilan ta'minlash. 2012 yil III-IV choragi. Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi. 12 267,5. Byudjet mablag`lari.

13. Har yili xalqaro xotin-qizlar kuni— 8 mart bayram arafasida sport musobaqalarini va o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish paytida kam ta'minlangan oilalarning qizlariga, rag`batlantirish tartibida 190 mingta sport kiyimlari to'plamini topshirish. 2 930,0. Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi mablag`lari.

Quyidagilarni amalga oshirish orqali xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishni kengaytirish choralarini amalga oshirish:

Tadbirkorlik bilan shug`ullanayotgan qizlar va yosh ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida uchta hududiy Biznes-inkubatorlarni yaratish, respublikaning barcha hududlarida xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishini rag`batlantirish maqsadida biznes forumlar o'tkazish (shu jumladan tadbirkor ayollar boshqarayotgan muvaffaqiyatli korxonalarni borib ko'rish);


Respublikaning ish o'rinlariga talab kuchli bo'lgan 32 ta tumanida 1,3 ming nafar yosh ayollar va qizlarni biznes yuritish asoslariga va mehnat bozorida talab qilinayotgan kasblarga o'qitib o'rgatish uchun «O'z biznesingni yo'lga qo'y» mavzusida seminarlar o'tkazish.

2-Rasm. Xotin-qizlarni tadbirkorlik faolligini oshirish tadbirlari

14. Yoz oylarida bolalarning mazmunli dam olishi va sog`lomlashtirilishini quyidagilar orqali ta'minlash: 260 ming nafar bolalar uchun sog`lomlashtirish oromgohlarida imtiyozli yo'llanmalar bo'yicha, ularning 12 ming nafari (ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar farzandlari) bepul yo'llanmalar bo'yicha dam olishini uyushtirish; bolalar uchun 28 ta harbiy-sport lagerlari, intellektual rivojlanish lagerlari, ekologik va turistik yo'nalishdagi lagerlarni, shuningdek yuqori sinf o'quvchilari uchun dam olish va mehnat lagerlarini yaratish. 22 000,

shundan 800,0 tasi byudjet hisobidan. Kasaba uyushmalari Federastiyasi Kengashi, byudjet, korxonalar, tashkilotlar va homiylar mablag`lari

15. Respublikamizning har bir tumani va shahridan ijtimoiy yordamga muhtoj 100-150 yosh oilalar uchun guruhli sayohatlarni, shu jumladan, temir yo`l transportida tarixiy maskanlar va diqqatga sazovor joylarga sayohatlarni uyushtirish, sayohatga artistlar, yozuvchilar va mahalliy axborot vositalari vakillarini taklif qilish. 2 700,0. Navro`z bayrami, Hayit bayrami, Davlat Mustaqilligi kuni bayramlarini nishonlash doirasida.



3-Rasm. Respublika kasaba uyushmalarining sog`lomlashtirish muassasalari tizimi orqali quyidagi tadbirlarni amalga oshirish

16. Kichik korxonalar va mikrofirmalarni rivojlantirish hisobidan xotin-qizlarning bandligini ta`minlash uchun 240 mingta ish o`rinlarini yaratish, shu jumladan xizmat ko`rsatish va servis sohasida — 114 mingta, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan — 90 mingta, sanoatda — 20 mingta, qurilishda — 16 mingta ish o`rinlarini yaratish.

17. Quyidagi yo'llar orqali xotin-qizlarning ijtimoiy-maishiy turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash: 44 040,0, shundan 2012 y - 33 000,0 mln.s.

4,9 mingdan ortiq maktabgacha ta'lim muassasalarining bolalarini maktabda o'qishga samarali tayyorlashda oilalarga yordam berish maqsadida 73,8 ming nafar bolalarning intellektual qobiliyatlari, mantiqiy fikrlashi va motorikasini rivojlantiruvchi mantiqiy intellektual o'yinlar to'plamlari bilan;

1033,2 ming nafar o'quvchilarni bepul darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlash, ularning 492 ming nafari umumta'lim maktablarining 1-sinf o'quvchilari, 5,2 ming nafari «Mehribonlik» uyi va maktab-internatlar tarbiyalanuvchilari, salkam 536 ming nafari kam ta'minlangan oilalar farzandlari;

Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 3,5 milliondan ortiq umumta'lim maktablari o'quvchilarini ijara tizimi asosida darsliklar bilan ta'minlash; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlari kutubxona fondlarini 381 nomdagi 576,6 mingta o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash;

322 ta kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarini o'quv-amaliy jihozlar, shuningdek, 828 ta kasb-hunar kollejlari o'quv-amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'llaniladigan xom ashyo hamda materiallar bilan ta'minlash;

915 ta umumta'lim muassasalarini kompyuter sinfxonalari bilan ta'minlash.

4-Rasm. Oila institutining ta'lim hamda tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligi mexanizmini mustahkamlash

- 2012—2014 yillarda mahalliy lashtirish dasturi va iste'mol mollari ishlab chiqarishni kengaytirish dasturi loyihalarini amalga oshirish doirasida xotin-qizlar mehnatini engillashtiruvchi uy-ro'zg'or elektr mollari, oshxona texnikasi, kir yuvish vositalari va maishiy kimyo buyumlari ishlab chiqarilishini ko'paytirish;

- xotin-qizlarning uy-ro'zg'or mehnatini engillashtirish maqsadida oilalarga 3 yil muddatga eng kam ish haqining 50 baravarigacha bo'lgan hajmda maishiy va oshxona elektr asboblari sotib olish uchun iste'mol kreditlarini ajratish;

18.2012 yil davomida respublikamizda mavjud bo'lgan shahar poliklinikalari zamirida 69 oilaviy poliklinika barpo etish orqali oilaviy tibbiyot tizimini yanada rivojlantirish.

1.2.OILAVIY TADBIRKORLIKNING TASHKILY ASOSLARI, FAOLIYAT YO'NALISHLARI VA ERKINLIK KAFOLATLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga baishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaydiki: “ Hisobot yilida yangi ish o'rinlari tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash masalasini hal qilish ham e'tiborimiz markazida bo'ldi. Hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan 1 millionga yaqin ish o'rnining 68 foizidan ko'proi qishloq joylarda tashkil etildi.Ta'kidlash joizki, yangi ish o'rinlarining 64 foizidan ortii kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rabatlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish, 28 foizidan ziyodi esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-itisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining majlisidagi ma'ruzalarida ta'kidlaydilarki 2010 yilda mamlakatimizda jami 950 mingdan ortiq ish o'rni tashkil etilganidan 604 mingdan ziyodi yoki 65 foizi kichik biznes sohasi va fermer xo'jaliklariga, 210 mingdan ortig'i kasanachilik sohasiga to'g'ri keladi... 2011 yilda mazkur sohaning yalpi ichki

masulotdagi ulushini 54 foizga etkazish ko'zda tutilayotganini aytishning o'zi kifoya, deb o'ylayman. Shu bilan birga, erishgan muvaffaqiyatlarimizni dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslagan holda tanqidiy baholar ekanmiz, shuni tan olishimiz kerakki, O'zbekistonda hali bu yo'nalishda qilinishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konstepstiyasi" ma'ruzasining oltinchi bandi "Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish" deb atalgan. Mazkur ma'ro'zadagi fikr- g'oyalar mamlakatimizni istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslarini tashkil etadi. Unda Prezidentimiz: *kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatidagi oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo'yish vaqti keldi deb ta'kidlay.*

Bu sohani yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston prezidenti I.A. Karimov 2012 yilning 26 aprelida "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi" qonunni imzoladi. Mazkur qonun 2012 yilning 16 martida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 2012 yilning 23 martida Senat tomonidan ma'qullangan edi. Ushbu qonunning asosiy maqsadi iqtisodiyotning turli sohalarida oilaviy tadbirkorlikni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim shakli sifatida rivojlantirish uchun zarur qonunchilik bazasini yaratish, oilaviy biznes uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirish va yangi ish joylarini tashkil etishdan iborat. Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi, mamlakatimizda, avvalo, mahallalarda kicuik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada kengayishi va rivojlanishiga, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining oshishiga muhim omil bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi" Qonunining 3-moddasiga muvofiq oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z

mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. U o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mazkur Qonunning 4-moddasida "Oilaviy korxonalar" to'g'risida batafsil tushuncha berilgan. Jumladan:

Oilaviy korxonalar uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik sub'ektidir. Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxonalar tadbirkorlik sub'ektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Oilaviy korxonalar faoliyatini faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'lishi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlarni olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Oilaviy korxonalar o'z majburiyatlari bo'yicha qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javob beradi.

Oilaviy korxonalar ishtirokchilari korxonalar mol-mulki etarli bo'lmaganda oilaviy korxonaning majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi.

Oilaviy korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin.

Oilaviy korxonalar ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining qonun hujjatlarida belgilangan

o'rtacha yillik sonidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxonalar ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo'lmasligi kerak.


Oilaviy korxonalar to'liq firma nomiga ega bo'lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'lishga haqli. Oilaviy korxonaning to'liq firma nomi uning to'liq nomini va «oilaviy korxonalar» degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. Oilaviy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va «oilaviy korxonalar» degan so'zlarni yoki «OK» abbreviaturasini o'z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonalar tashkil etish. Oilaviy korxonalar uning ishtirokchilari tomonidan tashkil etiladi. Oilaviy korxonalar, agar uning ta'sis shartnomasida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, nomuayyan muddatga tashkil etiladi. Oilaviy korxonalar ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi oilaviy korxonaning yuqori boshqaruv organidir. Oilaviy korxonalar ishtirokchilari umumiy yig'ilishining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ❖ oilaviy korxonaning ta'sis shartnomasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- ❖ oilaviy korxonalar boshlig'ini saylash;
- ❖ oilaviy korxonalar faoliyatining turlarini belgilash;
- ❖ oilaviy korxonaning ustav fondini belgilash va uning miqdoriga o'zgartishlar kiritish;
- ❖ oilaviy korxonalar boshlig'ining oilaviy korxonalar moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi yillik hisobotini ko'rib chiqish;
- ❖ ta'sis shartnomasiga muvofiq oilaviy korxonaning foydasini taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish;
- ❖ oilaviy korxonaning mol-mulkiga doir yirik bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish.

5-rasmda oilaviy korxonaning faoliyat turlari sanab o'tilgan. Oilaviy korxonaning mol-mulki oilaviy korxonalar ishtirokchilari tomonidan uning ustav fondiga kiritiladigan mol-mulkdan; qarz mablag'lari va kreditlar hisobiga olingan mol-mulkdan; tovarlarni realizatsiya qilishdan, ishlar bajarishdan, xizmatlar ko'rsatishdan olingan va oilaviy korxonalar rivojlantirishga yo'naltirilgan

daromadlardan, shuningdek bu daromadlar hisobiga olingan mol-mulkdan; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag`lardan tarkib topadi.



5-Rasm. Oilaviy korxonaning faoliyat turlari

Oilaviy korxonaning faoliyati amalga oshiriladigan joy. Oilaviy korxonada ishtirokchilariga mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda tegishli bo'lgan turar joylar va yashash uchun mo'ljallanmagan joylar, shu jumladan ishlab chiqarish, xo'jalik binolari va boshqa imoratlar oilaviy korxonada faoliyatini amalga oshiriladigan joydir. Oilaviy korxonada ishtirokchilariga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan turar joylarni ulardan oilaviy korxonada faoliyatida foydalanish maqsadida yashash uchun mo'ljallanmagan joylarga aylantirish talab qilinmaydi, bundan faoliyatning ayrim turlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Oilaviy korxonada faoliyatini amalga oshirish shartlari. Oilaviy korxonada faoliyatning ayrim turlarini faqat maxsus ruxsatnoma (listenziya) mavjud bo'lganda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxonada aktsiz solig'i to'lanadigan mahsulotni ishlab chiqarishni va er qabulidan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali

qazilmalar kavlab olishni, shuningdek yuridik shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq yoki yagona er solig'i to'lash nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirishi mumkin emas. Oilaviy korxonada faoliyatida zaharli, radioaktiv moddalar va materiallardan, yuqori bosimli asbob-uskunalardan hamda inson va atrof-muhit uchun katta xavf tug'diradigan boshqa asbob-uskunalardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Oilaviy korxonada foydalanishi mumkin bo'lmagan moddalar, materiallar va asbob-uskunalarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Oilaviy korxonada sanoat tushidagi faoliyatni ko'p kvartirali uyning turar joylarida amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Oilaviy korxonada faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan normalar va qoidalarga rioya etilgan holda amalga oshirilishi kerak.

Oilaviy korxonada mahsulotini realizatsiya qilish. Oilaviy korxonada o'zi ishlab chiqargan mahsulotni naqd pulli va (yoki) naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha realizatsiya qilishi mumkin. Oilaviy korxonada mahsulotini realizatsiya qilish u ishlab chiqarilgan joyda amalga oshirilishi mumkin.

Oilaviy korxonada hisob va hisobot. Oilaviy korxonada hisob va hisobot, shuningdek uning faoliyati ustidan statistika kuzatuvlari kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun nazarda tutilgan tartibda yuritiladi.

Oilaviy korxonada ishtirokchilarining va yollanma xodimlarining ijtimoiy muhofazasiga quyidagilar taalluqlidir:

- Oilaviy korxonada korxonaning ishtirokchilari va yollanma xodimlariga xavfsiz mehnat sharoitlarini, ijtimoiy muhofaza choralari ta'minlashi shart hamda ularning hayotiga yoki sog'lig'iga etkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.
- Oilaviy korxonada korxonaning ishtirokchilari va yollanma xodimlari uchun qonun hujjatlarida belgilanganiga nisbatan imtiyozliroq mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni mustaqil ravishda belgilashga haqli.

- Oilaviy korxonada ishtirokchilar va yollanma xodimlarning ishlagan vaqti davlat ijtimoiy sug`urtasi bo'yicha badallar to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuritiladigan mehnat daftarchasidagi yozuvlar asosida mehnat stajiga qo'shiladi.
- Oilaviy korxonada oilaviy korxonaning ishtirokchilari va yollanma xodimlari hayotiga yoki sog`lig`iga mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki ular o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog`liq holda sog`lig`ining boshqacha tarzda shikastlanishi sababli etkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha o'z fuqarolik javobgarligini ish beruvchi sifatida qonun hujjatlarida belgilangan shartlar va tartib asosida sug`urtalashi shart.

“Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi” Qonunining 6-bobida “Oilaviy korxonada faoliyati erkinligining kafolatlari” ko'rsatilgan. Bu kafolatlarga qo'yidagilar kiradi:

- ✚ Oilaviy korxonani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.
- ✚ Oilaviy korxonada mol-mulkinging nastionalizastiya, musodara va rekvizistiya qilinishiga yo'l qo'yilmasligi.
- ✚ Oilaviy korxonada faoliyatining erkinligi.
- ✚ Oilaviy korxonaga soliq solish xususiyatlari.
- ✚ Oilaviy korxonada faoliyatini tekshirishlarning cheklanishi.
- ✚ Oilaviy korxonaning kommunal infratuzilma ob'ektlaridan foydalanishini ta'minlash.
- ✚ Oilaviy korxonaga bank xizmati ko'rsatish va uni kreditlash.

O'zbekiston Respublikasi “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi” Qonunini qabul qilganligi O'zbekistonda oilaviy biznesni yanada rivoj topishini ta'minlaydi va u xususiy tadbirkorlikni me'rosiy shakli sifatida oilalarning iqtisodiy salohiyati va bandligini oshirishga ko'maklashadi.

1.3.XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MEROSIY SHAKLI SIFATIDAGI OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

“Oilaviy biznes” deganda yollanma ishchilarni jalb etmasdan oila a’zolari mehnatidan foydalangan holda xususiy tadbirkorlik bilan shug’ullanish nazarda tutiladi.“Oilaviy ish”ni G`arbda avloddan avlodga o’tadigan merosiy biznes sifatida e’tirof etadilar.Uning asosiy motivastiyasi – kelajak avlodni moliyaviy farovonligini ta’minlash uchun oilaviy ishini tashkil etishdadir. O’zbekistondagi oilalarida odatda farzand va naveralarning kelajagi haqida qayg`urish keng tarqatilgan.Biroq, bu say’-harakatlar **jamg`arish xususiyatga** ega.Ya’ni biz barkamollik davrimizda farzandlarimizni oilaviy va o’y-joyli qilishga, bilimdon, kasb-hunarli va ish bilan band bo’lishlariga harakat qilamiz-da,lekin ularga ko’proq tayyor narsalarni qoldirib ketishga intilamiz.Bozor iqtisodiyoti sharoitida kelajak avlodning kasb-hunarimiz negizidagi tadbirkorlik ishimizni qoldirib ketgan taqdirida,ularga ko’proq iqtisodiy manfaat keltirgan bo’lar edik.Bu maqsadga erishish uchun “oilaviy biznes” alohida ahamiyat kasb etadi.Chunki u qo’yidagi afzalliklarga ega:

- 1.Umumiy ish tufayli barcha oila a’zolarini birlashtiradiki,bunday hamkorlik esa oilaning yanada jipslashiga ,mustahkamlanishiga olib keladi.
- 2.Foydani ko’paytirish va oila byudjetini oshirishga intilish.
- 3.Yoshlikdan bolalarni biznesga jalb etish imkoniyati vujudga keladi.Biznesni yuritish bo’yicha bilim va ko’nikmalarni ota-onadan, kattalardan o’rganish ko’p hollarda mutaxassislardan oladigan quruq nazariy saboqlardan afzalroqdir.
- 4.Oilaviy ishni farzandlarga me’ros qoldirib, ularning barqaror va farovon kelajagini ta’minlash.
- 5.Oila a’zolar ish bilan bandligi uzoqlarga ish qidirib ketmasdan o’z uyida qolib ishlashni afzal ko’rish.
- 6.Oila a’zolarining mehnatsevarlik,tejamkorlik,tashabbuskorlik, tadbirkorlik,mas’uliyatdorlik kabi ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyatga ega bo’lgan fazilatlarning shakllanishi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston sharoitida oilaviy biznesning eng ma'qul turlari xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lardi. Istiqbolli oilaviy biznes faoliyatlariga quyidagilar kiradi:

- ✚ nonvoylik;
- ✚ ertalab va kechqurn issiq nonlarni buyurtma asosida mijozlar o'yiga etkazib berish xizmati bilan;
- ✚ oilaviy qahvaxona, to'yxona, oshxona, choyxona;
- ✚ go'zallik saloni;
- ✚ qandalotchilik stexi;
- ✚ tikuvchilik stexchasi;
- ✚ mebel ustaxonasi;
- ✚ gullar va to'hfalar do'koni;
- ✚ internet klublar;
- ✚ bolalar kiyim-kechagi va o'yinchog'lar magazini;
- ✚ avtoservis xizmati kabi ish turlarini tavsiya etish mumkin.

Oilaviy biznesni rivojlantirish evaziga xonadonlarning daromadi oshadi va o'y-ro'zg'ordagi ayrim:

- ❖ pazandalik, bog'bonchilik,
- ❖ bolalarga qarash,
- ❖ haydovchilik,
- ❖ qorovullik kabi ishlarni bajarish uchun yollanma ishchilarni jalb etish natijasida xonadon ichida qo'shimcha ish joylarni tashkil etish imkoniyati ham vujudga keladi.

“Oilaviy biznes”ning kamchiliklari ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- Ayrim oila a'zolarining nokompetentligi biznesni yuritishda muammolar kelib chiqaradi.
- Qarindoshlar nazarida ishbilarmonlik obro'ning mavjud bo'lmasligi. Psixologik oila biznesni yurgizishga tayyor bo'lmasligi mumkin.

- Shaxsiy va ishbilarmonlik munosabatlarini ajrata bilish, aks holda, barcha oilaviy hayyot biznesga
- Ko'pincha oila a'zolarida haddan tashqari shaxsiy jizzakilik va takabburlikka berilishi mumkin.

Bunday muammolar sizning oilaviy biznesingizda uchratmaslik uchun oldindan barcha bo'lajak qiyinchiliklarni muhokama qilib, qarindoshlaringiz bilan birgalikda aniq qoidalarni ishlab chiqish ma'qul bo'lardi.

Oilaviy biznes o'z samaradorligi bilan xalqaro miqyosida yuqori nufuzli tadbirkorlik turiga aylangan. Uning negizida xalqaro darajada obro'li korporastiyalar etishib chiqqan. Bunga Ford avtomobil korporastiyasi yorqin misol bo'ladi. Genri Ford "Mening hayyotim, mening yutuqlarim" nomli kitobida oilaviy biznesini vujudga kelish tarixi, an'analari va tajribalari haqida hikoya qilib, oilaviy avtomobilsozlik biznesini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga e'tiborini qaratilganligini ta'kidlaydi:

1. Kelajagdan qo'rqma va o'tmishdan saboq olgin. Kim bo'lajagdan qo'rqsa, u o'z faoliyat doirasini mahdudlaydi. O'tmish bizga rivojlantirish yo'llari va vositalarini ko'rsatishi bilan foydalilidir.
2. Raqobatga uncha ahamiyat berma. Kim o'z ishini yaxshiroq uddalsa, o'sha ishlashni davom etsin.
3. Umumiy manfaatga ishlashni shaxsiy naflikdan ustun qo'y. Daromad nafli ishning asosida emas, balki uning so'ngida qaror topishi lozim.
4. Ishlab chiqarish – arzon sotib olish va qiymat sotishni bildirmaydi. Bu, ko'proq mo''tadil narxlar bilan xom ash'yo va materiallarni xarid qilib ularni imkoni boricha kamroq qo'shimcha xarajatlar bilan iste'molchilarga etkazadigan sifatli mahsulotga aylantirishdir.

Tadbirkorlik qadimdan insonlar uchun o'z hayotini qurish, mustaqil ro'zg'or yuritish, tashabbuskorlik bilan mehnat qilib, oilasi, elu yurtining farovonligiga o'z hissasini qo'shishning muhim omili bo'lib kelgan. Qolaversa, ishbilarmonlik xalqimizning qon qoniga singib ketgan ezgu fazilatdir. Aytish joizki, xonadonlarning oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanishi oilalarning mustahkamlashga ko'maklashadi

va turmushda uchraydigan turli muammolarni oqilona hal etish imkonini kengaytiradi. Tadbirkorlar oilasidagi turmush muammolari bilan bog`liq ziddiyatlar boshqa oilalardagiga nisbatan ancha kam uchraydi. Ta`kidlash lozimki, tadbirkorlarning yarmidan ortig`i oilaviy muammolarni echish uchun ayni biznes bilan shug`ullanish yordam berayotganini e`tirof etadi. Oilaviy biznesda odatda, vazifalarning ichki taqsimoti yuzaga keladi. Unda erkakning ham, ayolning ham va balog`atga etgan bolalarning ham mehnatidan foydalaniladi. Binobarin, oilaviy biznesning muvaffaqiyati uyushganlikda, ya`ni hammaning bir biriga yordam berishida, korporativ manfaatlarni birgalikda himoya qilishda, oila inoqligidadir.

Buxoro shahrida "Oilaviy turistik biznes"ning asosiy shakllari mustaqillikka erishgandan so`ng rivojlanib bormoqda. Misol sifatida, Yusupovlar oilasini ko`rsatish mumkindir. Bu oila 2000 yilda Buxoro shahrining eski shahar qismida joylashgan "*Minzifa boutique hotel*" nomli 8 ta xonadan iborat bo`lgan mehmonxonani ochishdan o`zining oilaviy biznesini boshlagan. Ikki yildan so`ng, o`zining oilaviy biznesini kengaytirish maqsadida "*Minzifa souvenir shop*", turistlarga suverinlar sotuvchi eski shahardagi Toqi telpakfurushonda do`kon ochadi. Yana ikki yildan so`ng, 2006 yili "*Minzifa cafe*", sayyohlarga o`zbek milliy taomlari taklif qiluvchi ajoyib kafe ochadi. Bu oilaviy biznesning oxirgi biznes sub`ekti bo`lib, 2008 yilda ochilgan "*Minzifa tour agency*" turistik firmasi hisoblanadi.

Shunday qilib, hozirda Yusupovlar oilasi mehmonxona, do`kon, kafe va turistik firma ochib, Buxoro shahrida "Oilaviy turistik biznes"ni tashkil qilgan holda, bir necha yillar davomida o`z faoliyatini turistik bozorda namunali tarzda olib bormoqda.

"Oilaviy turistik biznes"ni yanada mukammal, har tomonlama foydali va raqobatbardosh bo`lishini ta`minlash maqsadida quyidagi yo`llar taklif qilinadi:

✓ "Oilaviy turistik biznes" ko`rinishida tashkil qilingan mehmonxonalar ichida oilaning turishi uchun mo`ljallangan xonalardan tashqari alohida bolalarning hordiq chiqarishi uchun "bolalar o`yin maydonchasi"ni tashkil qilish hamda bolalar uchun maxsus qo`g`irchoqlar, ertaklar kabi bayramlarni tashkil etish maqsadga

muvofig bo'lar edi; O'zbekistonning 3 ta asosiy turistik shaharlari hisoblanadigan Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlarida ham "Oilaviy turistik biznes" sifatidagi mehmonxona, do'kon, turistik firma va restoranlar tashkil qilish imkoniyatlaridan keng foydalanish;

✓ "Oilaviy turistik biznes" ko'rinishidagi hunarmandchilikning zardo'zlik va patdo'zlik, chilangarlik va temirchilik kabi sohalariga ixtisoslashgan oilalarning tarixiga bag'ishlangan uy muzeyini tashkil qilish yo'li bilan sayyohlarni qiziqtirish;

✓ O'zbekistonda oilaviy mehmonxona biznesi bilan shug'ullanadigan odamlarni chet elga shunaqa oilaviy mehmonxonalarga yuborish kerak, ularni tajribasini o'z ko'zi bilan ko'rib kelsin. Mamlakatimizda esa, "Oilaviy mehmonxona biznesi" asoslari fanidan aholi o'rtasida trening o'tkazishni yo'lga qo'yilgan taqdirda oila a'zolarining tadbirkorlik qobiliyatlari rivojlanatirishga erishardik.

Oilaviy turistik biznes bilan shug'ullanmoqchi bo'ladigan oila dastlab oila a'zolari bunday biznes turi bilan shug'ullanishga o'zining tayyorgarlik holatini tahlil qilishi lozim. Bunday tahlil xorijda maxsus test orqali o'tkaziladi. Polsha mutaxassislari tomonidan oilaning agroturizm bilan shug'ullana bilish mumkinligi bo'yicha quyidagi testlarni tuzganlar²:

1. Zudlik va osonlik bilan boshqa odamlar bilan umumiy til topa olasizmi?
2. Biron narsani qachondir muvaffaqiyat bilan sota bilganmisiz? Mijozni ishontirish qobiliyatiga egamisiz?
3. Turizm sohasida ish tajribangiz bormi?
4. Oilangiz yordamiga umid qilsangiz bo'ladimi?
5. Mustahkam sog'liqqa egamisiz?
6. Ertalab soati 6 dan kechasi 12 ga qadar tabassum qila olasizmi?
7. Ovqat pishirishni yoqtirasizmi?

² [Турагентство как бизнес. При каких условиях можно начинать туристический бизнес?](http://nakanary.info/13-pri-kakikh-uslovijakh-mozhno-nachinat.html)
<http://nakanary.info/13-pri-kakikh-uslovijakh-mozhno-nachinat.html>

8 .Siz uchun yangi bo'lgan kasb-hunarni maxsus o'qib o'rganishga tayyormisiz?

9. Quloq solib eshitish qo'lingizdan keladimi?

10.Uyingizga tez-tez mehmon kelib ketishiga jimjit munosabatda bo'la olasizmi?

Bu test savollariga uch variantda: “ha”, “ bo'lishi mumkin”, “yo'q” deb javob beriladi. “Ha” javobga – 5 ochko, “ bo'lishi mumkin” javobga – 2 ochko va “yo'q” javobga esa 0 ochko qo'yiladi.Ochkolarni hisob-kitobi natijasida oilaning biznesga tayyorligining uchta quyidagi holatlari aniqlanadi:

1. 0 dan 20 ochkogacha: siz bu biznesni o'zlashtira olishga qodir emassiz.
2. 21 dan 39 ochkogacha: sinab ko'rish mumkin, lekin o'z ustingizda ishlashingizga to'g'ri keladi.Agar 1, 4 va 8 savollarga “ha” javoblar mavjud bo'lsa, oilaviy biznes bilan shug'ullanishga ishonch mavjud bo'ladi.
3. 40 dan 50 ochkoga qadar: oilangizda bu biznes turi bilan shug'ullanish uchun juda yaxshi qobiliyatlar mavjud.

Oila a'zolarining javoblarini solishtirib, siz har bir a'zoning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashingiz mumkin.Bu biznesni yuritish bilan bog'liq bo'lgan uyga qarash, ovqat pishirish, mehmonlarni kutib olish va boshqa vazifalarni oila a'zolari o'rtasida to'g'ri taqsimlashga ko'maklashadi.

Buxoro sharoitida oilalarning turistik biznes bilan shug'ullanishga hozirlik holatini o'rganish maqsadida biz yuqoridagi test savollarini 5 ta oila misolida sinab ko'rdik.So'rov natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

2-jadvaldan ko'riib turibdiki, sinov o'rektidagi 5 ta oiladan faqat bittasi - Usmonovlar oilasi 40 ochko to'plab, turizm sohasidagi oilaviy biznes bilan shug'ullanish uchun juda yaxshi qobiliyatlarga ega ekanligi aniqlandi.So'rov kuzatuvidagi 2 ta – Jumaevlar (35 ochko) va Nazarovlar (35,5 ochko) oilalari biznes bilan shug'ullanish uchun nisbatan kamroq ochko to'plangan bolsa-da, lekin aksar oila a'zolari testning 1-chi, 4-chi va 8-chi savollariga “ha” degan javoblar mavjud bo'lganligi sababli oilaviy biznes bilan shug'ullanishni sinab ko'rishlarini mumkin.

2-Jadval.Buxoro shahridagi 5 ta oilaning biznes bilan shug`ullanishga tayyorlik holati

| t/r | Oila nasabi | Oila a'zolari soni | Testdan jamlangan umumiy oila ochkolari | O'rtacha oila test ochkolari | Biznes bilan shug`ullanishga oilaning tayyorlik Holati va ekspert tavsiyasi |
|-----|-------------------|--------------------|---|------------------------------|---|
| 1 | Jumaevlar oilasi | 3 | 105 | 35 | O'rtacha ,sinab ko'rishingiz mumkin |
| 2 | Halimovlar oilasi | 5 | 157 | 31,4 | Part ,shug`ullanish tavsiya etilmaydi |
| 3 | Nazarovlar oilasi | 4 | 142 | 35,5 | O'rtacha ,sinab ko'rishingiz mumkin |
| 4 | Husenovlar oilasi | 2 | 55 | 27,5 | Part ,shug`ullanish tavsiya etilmaydi |
| 5 | Usmonovlar oilasi | 2 | 80 | 40 | Yaxshi , shug`ullanish tavsiya etiladi |

Qolgan 2 ta oila – Husenovlar va Halimovlar oilalari 27,5 va 31,4 ochkodan to'planganligi sababli ular uchun bu biznes turi bilan shug`ullanish hozirgi vaqtda tavsiya etilmaydi. Muayyan muddatdan so'ng, maxsus biznes treningdan o'tishdan keyin sinov shaklida mazkur biznes turi bilan shug`ullanishlari mumkin bo'ladi. Faqat oilalar o'z ustida ishlab, oila a'zolarining tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishlari lozim.

Shundaq qilib, me`rosiy tadbirkorlik shaklidagi "oilaviy biznes" oddiy ish emas. U bilan shug`ullanish uchun tadbirkorlik faoliyat turining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, har bir oila o'z oila a'zolarining tashabbuskorlik, tashkilotchilik, novatorlik, bozorshunoslik, tavakkalchilik kabi tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib ish tutgandagina muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Oilaviy biznes to'g'risida"gi yangi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish bilan bog'liq takliflarni amalga oshirganda O'zbekistonda oilaviy biznes yanada rivoj topadi. Ota-onalar barkamollik yoshlarida oilaviy ishni boshlab o'z farzand-naveralariga me'ros qoldirib, ularning barqaror va farovon kelajagini hamda o'zlarining qariyiligini ham moliyaviy ta'minlashga erishadilar.

1.4.MUSTAHKAM OILANING MOLIYAVIY ASOSLARI


Inson hayotida eng qadrli va quvonchli – bu uning ikki tug'ishgan oilasidir. Biri – bu insonning o'zi tug'ilgan va katta bo'lgan oilasi bo'lsa, ikkinchisi – uning o'zi tuzgan va unda o'z farzandlarini dunyoga keltirib tarbiyalangan oilasi hisoblanadi. Mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2012 yil 16 martda O'zbekiston Respublikasining **"Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi"** Qonuni qabul qilindi va mamlakatimiz Senati tomonidan 2012 yil 23 martda bu qonun ma'qullandi. Mazkur Qonunga ko'ra "Oilaviy tadbirkorlik" - bu oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. U yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi" Qonuni mamlakatimizda oilalarning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan ustunlikka etaklaydi. Shveystariya va Buyuk Britaniya ekspertlarning «European Journal of Operational Research» jurnalida chop etilgan 1074 shveystariya juftliklarni o'rganish natijalariga ko'ra ishqu muhabbat, jismoniy intilish, did va fikrlarning o'xshashligi hamda umumiy qadr-qimmatlarga asoslanib tanlangan juftlikning oila mustahkamligi uchta

omil: *yoshi, ma'lumoti va kelib chiqishidan bog`liqligi* aniqlangan. O'zbekiston sharoitida, bizning fikrimizcha, juftliklarning urug`-qarindoshchiligi ham muayyan darajada oilalarning mustahkamligiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Bu omillarga asoslangan holda mustahkam oila qo'yidagi formula bilan hisoblanadi:

$$MO = EKA + AA + QBM + O'NB ,$$

Bu erda: **MO** – mustahkam oila; **EKA** – erkak kattaroq (ayol va erkakning biologik balog`atga etish xususiyatlaridan kelib chiqib erkak ayoldan kamida 3-5 yil katta bo'lishi maqsadga muvofiqdir); **AA** – ayol aqliroq (ayolning ma'lumot darajasi erkakdan yuqoriroq bo'lsa, oila manfati uchun maqsadga muvofiq bo'ladi); **QBM** – qarindosh bo'lmaganligi ma'qullroq; **O'NB** - o'tmishda nikohni buzmagani bo'lishi, ajralgan bo'lmaslik.



6- rasm. Oilaning iqtisodiy funkstiyalari

Statistik ma'lumotlar ko'rsatib beradi, oilalardagi mojarolarning qariyb 50% pul mablag'ralidan nooqilona foydalanish bilan bog'liq ekan. Haqiqatda ko'pgina pul bilan bog'liq muammolar yagona – “oila byudjetini taqsimlashda kim qaror qabul qilish huquqiga ega” degan savolga borib tarqaladi. Chunki, oila vazifalari o'rtasida uning quyidagi iqtisodiy funkstiyalari muhim ahamiyat kasb etadi:

- + iste'molchilik funkstiyasi (tovar va xizmatlarnin so'nggi iste'moli);
- + jamg'arma-investistiyalash funkstiyasi (omonatlar va jamg'armalarning shakllantirilishi);
- + ishlab chiqarish funkstiyasi (uyda iste'mol qilish uchun tovar va xizmatlarini yaratish);
- + mayishi-xo'jalik funkstiyasi (oila a'zolarini o'z-o'ziga mayishi xizmat ko'rsatish, iste'molchilik tovarlarga texnik xizmat);
- + takror ishlab chiqarish funkstiyasi (ishchi kuchi va insoniy resurslarini takror ishlab chiqarish).

Oila iqtisodiyotining muhim tavsiflovchisi sifatida oila kapitali xizmat qiladi.

“Oila kapitali” deganda oilaning daromad manbalari nazarda tutiladi. Bu kapitalning kuchaytirishi va rivojlantirishda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:


- 1.Oila a'zolarining individual inson kapitali.
- 2.Farzandlarning mavjudligi va ularning komillik darajalari.
- 3.Oilaning ma'naviy holati.
- 4.Oila daromadlari.
- 5.Oila a'zolarining o'rtacha yoshi.
- 6.Oilaning ma'lumoti.
- 7.Oilaning professional kapitali.
- 8.Oilaning uy-joyi qiymati (jilищныу kapital).Oila mulki qiymati.
- 9.Oilaning uy-ro'zg'or anjomlari.

3-jadval.Oilada liderlik rolini afsal taqsimlash dinamikasi (50% kam yoki ko'p)

| Oilaning funkstiyalari | Sovet davri | Bozorga o'tish davri |
|--|-------------|----------------------|
| 1) iste'molchilik (tovar va xizmatlarnin so'nggi iste'moli | Er Xotin | Er Xotin |
| 2) jamg'arma-investistiyalash (omonatlar va jamg'armalarning shakllantirilishi) | Er | Xotin |
| 3) ishlab chiqarish (uyda iste'mol qilish uchun tovar va xizmatlarini yaratish) | Er Xotin | Xotin |
| 4) Mayishi-xo'jalik (oila a'zolarini o'z-o'ziga mayishi xizat ko'rsatish, iste'molchilik tovarlarga texnik xizmat) | Er Xotin | Xotin |
| 5) Takror ishlab chiqarish (ishchi kuchi va insoniy resurslarini takror ishlab chiqarish) | Er Xotin | Er Xotin |

Oila kapitali uchta tarkibiy qismdan iborat (2-rasmda):

1. elationship (munosabat,qarindoshlik munosabati,ishqi munosabati).
2. resources (resurslar,pul vositalari).
3. resilience (oldingi jismoniy va ruhiy holatni tezda tiklash qobiliyati).



7-Rasm. Oila kapitalining uchta tarkibiy qismlari

Oilaning an'anaviy boshqaruv modelida er-xotinning rollari aniq taqsimlangan bo'ladi: Er – oila boquvchisi. Xotin esa, uy xo'jaligini yurgizish, farzandlarni

tarbiyalash va oila bilan birga yashaydigan keksa qarindoshlarga qarashga javob beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida oilani boshqarishning yangicha modellari vujudga keladi. Oilaning resurs va daromadlarini taqsimlashning uchta samarali modelini ajratish mumkin:

1.P. Samuelsonning oilaviy konsensus modeli. Manfaatlarning roziligiga yoki oila a'zolari o'rtasidagi muvofiqchilikka asoslanadi. Oila ichidagi moliya taqsimoti muammosi yagona funktsiya - "oilaning farovonligiga erishish yo'li" bilan echiladi.


2.G.Bekkerning altruistik modeli. Oila moliyasini taqsimot variantini tanlash va boshqa oila a'zolari unga rioya qilish uchun etarlicha vakolatga ega bo'lgan "altruist" sifatidagi oila a'zosining mavjudligi.

3.Zamonaviy muhokama modeli. Alternativ yo'li faqat bitta yo'ldan iborat bo'lgan va naflikni ko'paytirishga imkoni bo'lmagan holatda moliyani taqsimoti oilada muhokama qilish lozimligiga asoslangan model.

Bu modellarda oila moliyasini boshqarish vazifasi turli oila a'zolari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Agar maxsus tadqiqot o'tkazib oilalarga "Oila byudjetini kim boshqarishi lozim?" degan savol bilan murojaat qilsak, unda oilalar pastdagi oltita variantdan istaganini tanlab javob berishi mumkin.

1. Kim oila byudjetiga ko'proq pul keltirsa, o'sha.
2. Oila boquvchisi sifatidagi er.
3. Oila o'choqini saqlashga qudratli xotin.
4. Oilaning kattasi.
5. Oilaning eng aqllisi.
6. Oilani boylikka etaklovchi oila a'zosi.

Alternativ javoblardan barchasi to'g'ri, lekin ular o'rtasida, bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti sharoitida eng ma'qbuli oltinchisi - "Oilani boylikka etaklovchi oila a'zosi" degan javob hisoblanadi. Chunki, oila a'zolari o'rtasida pulni boshqarish



8-rasm. Uy xo'jaliklarining daromad manbalari


bo'yicha mahorati har xil bo'lishi mumkin. Faqat pulni boshqarish mahorati bor oila a'zosiga uni byudjetini boshqarish funkstiyasi yuklangan taqdirdagina oila moliyasidan samarali foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Oila a'zolarning boylikka etaklovchi fazilatlariga nimalar kiradi? Tomas Dj. Stenli va Uilyam D. Dankoning "Qo'shni uydan millioner" kitoblarida ta'kidlanishicha, odamlarning bunday fazilatlarini quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Sobotqadamlik yoki aniq bir maqsadga yo'naltirilganlik;
- Tavakkalga tayyor bo'lib turish;
- Qiziquvchanlik;
- Tahlil qilishga moyillik;
- Tashkillashtirish;
- Qanoatlanish;
- Sabr-toqat qilish;
- Oqillik;

- Moliyaviy tartib-intizom;
- Mehnatsevarlik va ziyraklik.

Oila byudjetini reja asosida yurgizish yaxshi samara beradi. Bu o'rinda oila byudjetini rejalashtirishning «to'rt konvert» usuli xonadon iqtisodiyoti uchun qiziqarli va nafli bo'lishi mumkin. Oila byudjetini rejalashtirishning «to'rt konvert» usuli quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Bir oylik oilaviy daromadingizni aniqlang. Agar daromadingiz tashqi omillardan bog'liq bo'lsa, uni o'rtacha miqdorini aniqlashga intiling. Masalan, 5 kishidan iborat oilaning oila daromadi hisob-kitoblarga ko'ra 1,2 mln. so'm bo'lsa, bu miqdorni maxsus daftaringizga yozib qo'ying.



9-rasm. Oila byudjetini rejalashtirishning «to'rt konvert» usuli

2. Darhol undan 10% ni jamg'arma yo/va investistiyaga ajratib qo'ying. Agar darhol amalga oshirmasangiz, uni ajratmaslik uchun yuzta bahona paydo bo'ladi.

Bizning misolimizda bu mablag` 120 ming so`mga teng bo`ladi. Bu pullarni oborotga tashab, kapitalga aylantirishga intiling. Oila byudjetining qoldiqi – 1,08 mln.s. ni tashkil etadi.

3.Domiy xarajatlar va ijtimoiy chiqimlarini aniqlang. Domiy xarajatlarga kommunal, qarz foizlar to`lovlar kirsa, tug`ilgan kunlar, to`y-marosimlar, restorandagi do`stona uchrashuvlar bilan bog`liq xarajatlar ijtimoiy chiqimlarga kiradi. Masalan bir oyda 100 ming so`m bu maqsadlarga ajratildi. Qoldiq – 980 ming so`m

4.Oila daromadining qoldig`i 4,3 ga bo`linadi va 4 ta kovertga solib, navbatba navbat haftalik me`yori bo`yicha foydalang. Bu mablag`lar oilaning haftalik xarajatlarini tashkil etadi. Bizning misolimizda haftalik xarajatlar qaryib 228 ming so`mga teng bo`ladi. «Ko`rpanga qarab oyog`ingni uzat» degan maqolga rioya qilib xarajat qilishni o`rgansangiz qarz va yordamga mo`htoj bo`lmaysiz.

Shunday qilib,oilalarning mustahkamligi uning moliyaviy barqarorligidan bog`liq bo`lib,oila byudjeti qancha moliyaviy etuk va boylikka etaklovchi oila a`zosi tomonidan ilmiy asoslangan usullar asosida boshqarilsa, o`zbek oilalari shuncha mustahkam bo`ladi.

I I. BOB. “OILAVIY BIZNESNING MOHIYATI” MAVZUSINI O`QITISH USLUBIYOTI”

2.1. “OILAVIY BIZNESNING MOHIYATI” MAVZUSINI O`QITISHNING TEXNOLIGIK MODELINI YARATISH”

| | |
|--------------|------------------------------------|
| Mavzu | OILAVIY BIZNESNING MOHIYATI |
|--------------|------------------------------------|

1.1. Ma’ruzani o’qitish texnologiyasi

| | |
|--|--|
| O’quv soati: 2 soat. | Talabalar soni: 20 ta |
| <i>O’quv mashg’ulotining shakli</i> | Informastion ma’ruza |
| <i>O’quv mashg’ulotining rejasi</i> | <ol style="list-style-type: none"> 1. «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi mohiyati va uning iqtisodiy tadbirlari. 2. Oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy asoslari, faoliyat yo’nalishlari va erkinlik kafolatlari. 3. Xususiy adbirkorlikni merosiy shakli sifatidagi oilaviy biznesning mohiyati. 4. Mustahkam oilaning moliyaviy asoslari. |
| <i>O’quv mashg’ulotining maqsadi</i> | Talabalarga oilaviy biznes bo`yicha nazariy bilimlarni hosil qilish va va uni dars berishga o`rganishdan iborat. |
| <p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - o’quv mavzunining maqsadi, vazifalari va boshka fanlar tizimida tutgan o’rnini tushuntiradi; - o’quv mavzunining tarkibi va foydalaniladigan adabiyotlar | <p><i>O’quv faoliyati natijasi:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzunining maqsadi, vazifalarini va boshqa fanlar tizimidagi tutgan o’rnini bilib shakllantira oladi; - o’quv mavzunining strukturasi |

| | |
|---|---|
| <p>ro'yxati bilan tanishtiradi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzunining predmeti va vazifasining mohiyati to'g'risida tushuncha berish; - " Oilaviy tadbirkorlikning "ning tushunchasi, unsurlari va tamoyillari tavsifini yoritib berish; - Oilaviy biznesning mohiyati izohiga xarakteristika berish; - Mustahkam oilaning moliyaviy asoslari mohiyati ochib beriladi. | <p>tushuntiradi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini va o'quv faoliyatini baholash shakllarini tushuntiradi; - mavzunining predmeti va vazifasining mohiyati izohlab beradi; - "Oilaviy tadbirkorlikning"ning tushunchasi, unsurlari va tamoyillari tavsifini ochib beradi; - Oilaviy biznesning mohiyati yoritib beradi; - Mustahkam oilaning moliyaviy asoslari tushuntiriladi. |
| <p><i>O'qitish uslublari</i></p> | <p>Ma'ruza, aqliy hujum, Blist-so'rov, namoyish etish.</p> |
| <p><i>O'qitish vositalari</i></p> | <p>O'quv qo'llanma, ma'ruza matnlari, kompyuter texnologiyasi, grafiklardan foydalanish.</p> |
| <p><i>O'qitish shakli</i></p> | <p>Jamoa bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash</p> |
| <p><i>O'qitish shart-sharoitlari</i></p> | <p>Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya</p> |

| | |
|-------------------------------|------------------------------------|
| <i>Monitoring va baholash</i> | Test va nazorat savollari shaklida |
|-------------------------------|------------------------------------|

1.1.1. Ma'ruzaning texnologik kartasi. (1-mashg`ulot)

| Ish bosqich-lari | Faoliyat mazmuni | |
|---------------------------------|---|-------------------------------|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1-bosqich. Kirish (10 minut) | <p>1.1.O'quv kursining asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi va o'tiladigan mavzular bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2.O'quv kursi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllari va reyting ballari bilan tanishtiradi. (1.(1.1.1) - Ilova)</p> <p>1.3.Asosiy adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi.</p> <p>1.4.O'tiladigan mavzuning maqsadi va kutiladigan natijani e'lon qiladi.</p> <p>1.5. O'quv mashg`ulotida baholash me'zoni e'lon qilinadi.</p> <p>1.6.O'quv mashg`ulotini o'tkazish tartibini tushuntiradi.</p> | Eshitadi. |
| 2-bosqich. | 2.1.Mashg`ulotning asosiy vazifalarini echish uchun talabalar guruhlariga inson | Talabalar 3 guruhga bo'linadi |

| | | |
|--|---|--|
| <p>Asosiy bosqich (50 minut)</p> | <p>tushunchalari bo'yicha har xil fikrlarni ko'rib chiqish topshiriladi. Bajarilgan ishga talabalar baho beradilar. Guruhni baholash jadvali ilova qilinmoqda (2 (1.1.1) - Ilova).</p> <p>2.2. Mavzu yoritiladi.</p> <p>2.3." Xususiy tadbirkorlikni merosiy shakli fatidagi oilaviy biznesning mohiyati".</p> <p>Ma'ruza aqliy hujum usulidan foydalanilgan holda olib boriladi. (3 (1.1.1) - Ilova).</p> <p>2.4.Tarqatma material beriladi.</p> <p>2.5. Baholanadi.</p> | <p>va berilgan texnologik usullar bo'yicha ishlaydilar. Guruh bosh-liqlari ularni himoya qiladi.</p> |
| <p>3-bosqich. Yakuniy bosqich (10 minut)</p> | <p>3.1. O'tilgan mashg'ulot bo'yicha yakun yasaydi, ular qaerlarda kerak bo'lishi aytiladi.</p> <p>3.2.Talabalar faoliyati tahlil qilinadi.</p> <p>3.3.Mustaqil tayyorgarlik uchun uyga quyidagi vazifalar beriladi;</p> <p>1. "Xususiy tadbirkorlik" va "Oilaviy biznes" atamalari nima bilan farqlanadi to'g'risida fikr yuritish.</p> <p>2. Oilaviy biznesning turlarini izohlash.</p> | <p>Talabalar eshitadi, yozib oladi.</p> |

1 (1.1.1) - Ilova

Baholash mezonlari: «Oilaviy biznesning mohiyati» mavzusi bo'yicha talabalar quyidagi reyting ballarida baholanadi:

30% - 30 ball - joriy baho; 86-100% - 22,92 – 25,60 ball – «a'lo»

40% - 40 ball – oraliq baho; 71-85% - 18,20 – 22,90 ball – «yaxshi»

30% - 30 ball – yakuniy baho. 55-70% 14,10–17,88 ball – «qoniqorli»

2 (1.1.1) - Ilova

Guruhni baholash jadvali.

| Guruhlar | Javoblarning aniq, ravshanligi (1,0) | Axborotning ishonchliligi (0,5) | Guruh a'zosining faolligi (0,5) | Umumiy ballar | Baho |
|----------|--------------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|---------------|------|
| 1 | | | | | |
| 2 | | | | | |
| 3 | | | | | |
| 4 | | | | | |
| 5 | | | | | |
| 6 | | | | | |
| 7 | | | | | |
| 8 | | | | | |


Guruh rahbarining chiqib tushuntirib berishi:

1,5 - 2 ball – a'lo

1,0 - 1,4 ball – yaxshi

0,5 - 0,9 ball – o'rta

2.1.4 . “Oilaviy biznesning mohiyati” mavzusining tuzilmaviy mantiqiy chizmasi



Aqliy hujum qoidalari:

- Hech qanday o'zaro tanqid va baholash bo'lmasligi kerak!
- Taklif qilinaetgan g'oyaga baho berishdan saqlan, agar u juda yuqori va bajarilish ehtimoli bo'lmasa ham - hammasiga ruxsat beriladi.
- Barcha keltirilgan g'oyalar qimmatli va teng kuchli – ularni tanqid qilmaslik kerak.
- Javob berayotganni to'xtatmaslik kerak!
- Kamchilik ko'rsatishdan saqlang!
- Maqsad miqdor hisoblanadi!
- Qancha ko'p fikr bildirilsa shuncha yaxshi: Yangi va qimmatli g'oyaning tug'ilishiga ehtimol shunchalik ko'p bo'ladi.
- Fikrlar takrorlansa e'tibor bermaslik kerak.
- Paydo bo'lgan g'oyani agar u sening nazaring bo'yicha qabul qilingan sxemaga javob bermasa ham tashlab yubormaslik kerak.
- Ushbu muommani faqat mavjud usullar bilan echish mumkin deb o'ylama.

1.2. Amaliy mashg`ulotni o`qitish texnologiyasi

| | |
|--|---|
| 2 soat | Talabalar soni: 20 |
| <i>O`quv mashg`ulotining shakli</i> | Amaliy mashg`ulot |
| <i>Mashg`ulot rejasi</i> | <ol style="list-style-type: none"> 1. Oilaviy tadbirkorlikning huquqiyasoslari. 2. Oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy asoslari. 3. Mustahkam oilaning iqtisodi asoslari. |
| <i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i> | Talabalarning oilaviy biznes va uni tashkiliy shakllari to`g`risidagi bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish. |
| <p><i>Pedagogik vazifa:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - Oilaviy tadbirkorlik to`g`risidagi nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash; - Oilaviy biznesning tashkiliy shakllari izohlash. | <p><i>O`quv faoliyati natijasi:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - Oilaviy tadbirkorlik tushunchasiga ega bo`ladi; - Oilaviy biznesning tashkiliy shakllari aniqlanadi. |
| <i>O`qitish usullari</i> | Amaliy mashq, «jamo bo`lib ishlash» usuli; |

| | |
|--------------------------------|---|
| <i>O'qitish vositalari</i> | Ma'ruza matni, ekspert varaqlari, grafiklardan foydalanish, Venna-diogrammasi, T-sxema. |
| <i>O'qitish shakli</i> | Guruhlarda ishlash usuli. |
| <i>O'qitish shart-sharoiti</i> | Texnik vositalar bilan ta'minlangan, guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya. |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Nazorat savollari |

1.2.1. Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

(1-mashg'ulot)

| Ish bosqich-lari | Faoliyat mazmuni | |
|--------------------|--|-------------------------------|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1-bosqich (15 min) | <p>1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>1.2. Amaliy mashg'ulotni o'tkazish xususiyatlari bilan talabalarni tanishtiradi.</p> <p>1.3. Mavzu bo'yicha topshiriqlarni</p> | Eshitishadi va yozib olishadi |

| | | |
|-------------------------------|---|---|
| | <p>tarqatadi.</p> <p>1.4. Savollar berib talabalarning bilimlarini faollashtiradi.(1(2.1) - Ilova)</p> | |
| <p>2-bosqich (55 min)</p> | <p>2.1. Mashg`ulotning asosiy vazifalarini echish uchun talabalar guruhlariga inson tushunchasi bo'yicha har xil fikrlarni ko'rib chiqish va tugagandan so'ng prezentastiya qilishni topshiradi. Bajarilgan ishga talabalar baho beradilar.</p> <p>2.3. Talabalar faoliyatini kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi</p> <p>2.4. Taqdimotni e'lon qiladi.</p> | <p>Talabalar 4 guruhga bo'linib ishlaydilar.</p> <p>Talabalar javob izlaydi va o'zi ham fikrini guruh rahbarlari orqali qo'shadi.</p> |
| <p>3-bosqich 10 min.</p> | <p>O'tilgan mashg`ulot bo'yicha nazorat savollariga javob berish va yakun yasash.</p> | <p>Eshitadi va yozib oladi.</p> |

1(2.1) - Ilova

Bilimlarni faollashtiruvchi savollar:

1. "Biznes" atamasining mohiyati nimada?
2. "Oilaviy biznes" va "Xususiy tadbirkorlik" deganda nima nazarda tutiladi?

3. Oilaviy tadbirkorlikni huquqiy shakli qanday ko`rinishga ega?
4. “Oilaviy korxonalar” “xususiy firma” dan nima bilan farqlanadi?
5. Oilaviy biznesning afzal tomonlari nimalarda o`z ifodasini topadi?

2 (2.1) - Ilova

Guruhni baholash jadvali.

| Guruhlar | Javoblarning aniq, ravshanligi (1,0) | Axborotning ishonchliligi (0,5) | Guruh a'zosining faolligi (0,5) | Umumiy ballar | Baho |
|----------|--------------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|---------------|------|
| 1 | | | | | |
| 2 | | | | | |
| 3 | | | | | |

Guruh rahbarining chiqib tushuntirib berishi:

1,5 - 2 ball – a'lo

1,0 - 1,4 ball – yaxshi

0,5 - 0,9 ball - o'rta

4 (2.1) - Ilova

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi” Qonuni qachon qabul qilindi?
2. “Oilaviy biznes”ning kamchiliklariga nimalar kiradi?

3. Genri Ford qaysi kitobida oilaviy tadbirkorlik san`ati haqida yozgan?

4. Biznes bilan shug`ullanishga oilaning tayyorligi nimalardan iborat?

5. Istiqbolli oilaviy biznes faoliyatlariga nimalar kiradi?


6. Oilaviy biznesni rivojlantirish evaziga xonadonlarning nimasi oshadi?

7. Oilaning iqtisodiy funkstiyalari nimalardan iborat?

(2.1)-Ilova

Venna – diagrammasi

Venna-diagrammadan foydalanib turagentlik tashkilotlari va turistlar o`rtasidagi umumiylik va alohida xususiyatlarini (ahamiyati) belgilang.



2.2.6.O`quv topshirig`i

1. Avval olingan bilibmlarni qo`llab, pastdagi jadvalni to`ldiring.

2. Savollar bo`yicha birga taqdimot qiling (1-3).

3. **“Yakka-tartibdagi tadbirkorlik”** atamasining **“Oilabiy tadbirkorlik”**

atamasidan farqli momonlarini ajrating.

| | | |
|--|--------------------------------|--------------------------------------|
| Yakka-tartibdagi tadbirkorlik | Oziga xos xususiyatlari | Oilabiy tadbirk orlik |
|--|--------------------------------|--------------------------------------|

| | | |
|--|--|--|
| | | |
| | 1. Bu ikki atama o`rtasida qanday o`xshashlik mavjud? | |
| | 2. Bu atama nima bilan bir birovidan farqlanadi? | |
| | 3. Ikkala atama dan qay biri O`zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida samarali hisoblanadi? | |
| | 4. Bu atamalarning ob`ektini nima tashkil qiladi? (o`zingizning ikringizni bildiring) | |

Ish tartibi va reglamaenti

1. Guruhlarda ishlash - 20 daqiqa.
2. Taqdimot - 10 daqiqa.
3. Jamoaviy muhokama va o`zaro baholash – 15 daqiqa

O`quv faoliyatini baholash ko`rsatkichlari va mezonlari

| Guruhlar | Savol yoritishning to`liqliligi (5 ball) | Javoblarga boshqa guruhlarining to`ldirishi (0,5 balldan) | Bashorat varianti (2 ball) | Umumiy ball |
|----------|--|---|----------------------------|-------------|
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |

2.2. “OILAVIY BIZNESNING MOHIYATI” MAVZUSINING KO`RGAZMALI ELEKTRON TAQDIMOTI USLUBIDA O`QITISH

KO`RGAZMALI ELEKTRON TAQDIMOTI

MAVZU: “OILAVIY BIZNESNING MOHIYATI VA UNI O`QITISH TEXNOLOGIYASI”

Taqdimotchi: 5140900 – “Kasbiy ta`lim” (ijtimoiy – iqtisodiy soha) yo`lanishi kunduzgi bo`lim 4 kurs “E” guruhi talabasi
RASULOV JAMSHID

14.05.2012

1



“Biz 2012-yilni yurtimizda “Mustahkam oila yili” deb e`lon qildik. Bu o`rinda gap aynan shular hisobidan pirovard natijada oila farovonligini va shu asosda butun xalqimiz farovonligini yanada oshirish haqida bormoqda. Shu kunlarda ushbu yo`nalishda belgilangan vazifalarni amalga oshirish va hayotga joriy etish bo`yicha Davlat dasturini ishlab chiqish ishlari nihoyasiga yetkazilmoqda. Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, mazkur dasturni amalga oshirish uchun 2012-yilda moliyalashning barcha manbalari hisobidan qariyb 4 trillion 400 milliard so`m va 370 million dollardan ortiq mabla yo`naltirilishi rejalashtirilmoqda. Bu mablaning 60 foizga yaqinini davlat mablalari, 25 foizini tijorat banklari kreditlari, qariyb 15 foizini mas`ul ijrochilarning o`z mablalari hamda 360 million dollardan ortiini xalqaro institutlar va donor mamlakatlar mablalari tashkil etadi”.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga baishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasidan.

MA`RUZA REJASI

- 1. «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi mohiyati va uning iqtisodiy tadbirlari.**
- 2. Oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy asoslari, faoliyat yo'nalishlari va erkinlik kafolatlari.**
- 3. Xususiy adbirkorlikni merosiy shakli sifatidagi oilaviy biznesning mohiyati.**
- 4. Mustahkam oilaning moliyaviy asoslari.**

1- SAVOL

**«MUSTAHKAM OILA YILI» DAVLAT
DASTURI MOHIYATI VA UNING
IQTISODIY TADBIRLARI.**

«MUSTAHKAM OILA YILI» DAVLAT DASTURI USTUVOR VAZIFALARI

Bugungi kun talablarini hisobga olgan holda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan qonunchilik normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu masalaga jamiyatimiz e'tiborini yanada kuchaytirish.

Yosh oilalarga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, moddiy va ma'naviy jihatdan yosh oilalarni keng ko'lamda qo'llab-quvvatlash, shu jumladan qulay va shinam uy-joy bilan ta'minlash, zarur imtiyoz va afzalliklar berish.

Jamiyatimiz va kundalik hayotimizda mahalla institutining rolini yanada kuchaytirish va maqomini oshirish, Mustahkam oila yili maqsad va vazifalarini hayotga tatbiq etishda mahalla va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ahamiyatini, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda shakllantirishda ularning ta'sirini kuchaytirish, yosh oilalarga zarur ko'mak va yordam berish

Oila, birinchi navbatda, ehtiyojmand oilalarning muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan g'amxo'rlikni yanada kuchaytirish, ularga moddiy yordam ko'rsatish va farzandlarni tarbiyalashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, munosib ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, bunda oilani mustahkamlashda asosiy yukni o'z elkasiga olgan ayollarga alohida e'tibor qaratish

«Sog'lom ona — sog'lom farzand» tamoyiliga muvofiq oila salomatligini, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish

Jamiyatimizning ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mustahkamlash, jamiyatimizda yuksak ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan va kuchayib borayotgan turli xil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning o'rni va ahamiyatini oshirish

**OILAVIY TADBIRKORLIK VA
HUNARMANDCHILIKNI
QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN
KREDITLAR AJRATISH (60 041
MLN.S.);**

**AYOLLARNI TADBIRKORLIK
FAOLIYATIGA FAOL JALB ETISH
UCHUN ULARGA KREDITLAR BERISH
(365 364 MLN.S.);**

**QORAMOLNI XARID QILISH
UCHUN SHAXSIY TOMORQA VA
DEHQON XO'JALIKLARIGA
MIKROKREDITLAR AJRATISH
(62 123 MLN.S.);**

**Meva-sabzavot mahsulotlarini etishtirish, qishloq
xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash,
parrandachilikni, asalarichilik va baliqchilikni
rivojlantirish uchun kichik biznes sub'ektlari,
dehqon, fermer va shaxsiy yordamchi
xo'jaliklariga kreditlar ajratish (202 637 mln.s.);**


**1-RASM. XOTIN-QIZLARNI IJTIMOYIY ISHLAB CHIQRISH VA OILAVIY BIZNESGA JALB QILISH,
OILALARNING FAROVONLIGINI OSHIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR DASTURINI
ISHLAB CHIQRISH VA AMALGA OSHIRISH YO'LLARI**

Quyidagilarni amalga oshirish orqali xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishni kengaytirish choralarini amalga oshirish:

Tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan qizlar va yosh ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida uchta hududiy Biznes-inkubatorlarni yaratish, respublikaning barcha hududlarida xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishini rag'batlantirish maqsadida biznes forumlar o'tkazish (shu jumladan tadbirkor ayollar boshqarayotgan muvaffaqiyatli korxonalarini borib ko'rish);

Respublikaning ish o'rinlariga talab kuchli bo'lgan 32 ta tumanida 1,3 ming nafar yosh ayollar va qizlarni biznes yuritish asoslariga va mehnat bozorida talab qilinayotgan kasblarga o'qitib o'rgatish uchun «O'z biznesingni yo'lga qo'y» mavzusida seminarlar o'tkazish.

2-RASM. XOTIN-QIZLARNI TADBIRKORLIK FAOLLIGINI OSHIRISH TADBIRLARI



3-Rasm. Respublika kasaba uyushmalarining sog'lomlashtirish muassasalari tizimi orqali quyidagi tadbirlarni amalga oshirish:

4,9 mingdan ortiq maktabgacha ta'lim muassasalarining bolalarini maktabda o'qishga samarali tayyorlashda oilalarga yordam berish maqsadida 73,8 ming nafar bolalarning intellektual qobiliyatlari, mantiqiy fikrlashi va motorikasini rivojlantiruvchi mantiqiy intellektual o'yinlar to'plamlari bilan;

1033,2 ming nafar o'quvchilarni bepul darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlash, ularning 492 ming nafari umumta'lim maktablarining 1-sinf o'quvchilari, 5,2 ming nafari «Mehribonlik» uyi va maktab-internatlar tarbiyalanuvchilari, salkam 536 ming nafari kam ta'minlangan oilalar farzandlari;

Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 3,5 milliondan ortiq umumta'lim maktablari o'quvchilarini ijara tizimi asosida darsliklar bilan ta'minlash; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlari kutubxona fondlarini 381 nomdagi 576,6 mingta o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash;

322 ta kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarini o'quv-amaliy jihozlar, shuningdek, 828 ta kasb-hunar kollejlarini o'quv-amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'llaniladigan xom ashyo hamda materiallar bilan ta'minlash;

915 ta umumta'lim muassasalarini kompyuter sinfxonalari bilan ta'minlash.


4-Rasm. Oila institutining ta'lim hamda tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligi mexanizmini mustahkamlash

2- SAVOL

OILAVIY TADBIRKORLIKNING TASHKILIIY ASOSLARI, FAOLIYAT YO'NALISHLARI VA ERKINLIK KAFOLATLARI.

O'zbekiston Respublikasi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi" Qonunining 3-moddasiga muvofiq

- Oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. U o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



5-RASM. OILAVIY KORXONANING FAOLIYAT TURLARI

“Oilaviy korxonada faoliyati erkinligining kafolatlari”

- 1 • Oilaviy korxonani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- 2 • Oilaviy korxonada mol-mulkinging nastionalizastiya, musodara va rekvizistiya qilinishiga yo'l qo'yilmasligi;
- 3 • Oilaviy korxonada faoliyatining erkinligi;
- 4 • Oilaviy korxonaga soliq solish xususiyatlari;
- 5 • Oilaviy korxonada faoliyatini tekshirishlarning cheklanishi;
- 6 • Oilaviy korxonaning kommunal infratuzilma ob'ektlaridan foydalanishini ta'minlash;
- 7 • Oilaviy korxonaga bank xizmati ko'rsatish va uni kreditlash;

3- SAVOL

XUSUSIY ADBIRKORLIKNI MEROSIY SHAKLI SIFATIDAGI OILAVIY BIZNESNING MOHIYATI.

“OILAVIY BIZNES”NING AFZALLIKLARI:

- 1 • Umumiy ish tufayli barcha oila a’zolarini birlashtiradiki, bunday hamkorlik esa oilaning yanada jipslashiga , mustahkamlanishiga olib keladi.
- 2 • Foydani ko’paytirish va oila byudjetini oshirishga intilish.
- 3 • Yoshlikdan bolalarni biznesga jalb etish imkoniyati vujudga keladi. Biznesni yuritish bo’yicha bilim va ko’nikmalarni ota-onadan, kattalardan o’rganish ko’p hollarda mutaxassislardan oladigan quruq nazariy saboqlardan afzalroqdir.
- 4 • Oilaviy ishni farzandlarga me’ros qoldirib, ularning barqaror va farovon kelajagini ta’minlash.
- 5 • Oila a’zolar ish bilan bandligi uzoqlarga ish qidirib ketmasdan o’z uyida qolib ishlashni afzal ko’rish.
- 6 • Oila a’zolarining mehnatsevarlik, tejamkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, mas’uliyatdorlik kabi ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyatga ega bo’lgan fazilatlarining shakllanishi

02.04.2009

15

“OILAVIY BIZNES”NING KAMCHILIKLARI :

- **Ayrim oila a’zolarining nokompetentligi biznesni yuritishda muammolar kelib chiqaradi.**
- **Qarindoshlar nazarida ishbilarmonlik obro’ning mavjud bo’lmasligi. Psixologik oila biznesni yurgizishga tayyor bo’lmasligi mumkin.**
- **Shaxsiy va ishbilarmonlik munosabatlarini ajrata bilish, aks holda, barcha oilaviy hayyot biznesga**
- **Ko’pincha oila a’zolarida haddan tashqari shaxsiy jizzakilik va takabburlikka berilishi mumkin.**

**Oilaviy biznesni rivojlantirish evaziga
xonadonlarning daromadi oshadi va o'y-
ro'zg`ordagi ayrim:**

- **pazandalik, bog`bonchilik,**
- **bolalarga qarash,**
- **haydovchilik,**
- **qorovullik kabi ishlarni bajarish uchun
yollanma ishchilarni jalb etish natijasida
xonadon ichida qo'shimcha ish joylarni
tashkil etish imkoniyati ham vujudga keladi.**

4- SAVOL

**MUSTAHKAM OILANING MOLIYAVIY
ASOSLARI.**

INSON HAYOTIDA ENG QADRLI VA QUVONCHLI – BU UNING IKKI TUG`ISHGAN OILASIDIR.

BIRI – BU INSONNING O`ZI TUG`ILIB KATTA BO`LGAN OILASI BO`LSA,

IKKINCHISI –UNING O`ZI TUZGAN VA UNDA O`Z Φ FARZANDLARINI DUNYOGA KELITIRIB TARBIYALANGAN OILASI HISOBLANADI.

MUSTAHKAM OILANING FORMULASI

$$MO = EKA + AA + QBM + O'NB ,$$

Bu erda:

MO – mustahkam oila;



EKA – erkak kattaroq (ayol va erkakning biologik balog`atga etish xususiyatlaridan kelib chiqib erkak ayoldan kamida 3-5 yil katta bo`lishi maqsadga muvofiqdir);

AA – ayol aqliroq (ayolning ma`lumot darajasi erkakdan yuqoriroq bo`lsa,oila manfati uchun maqsadga muvofiq bo`ladi);


QBM – qarindosh bo`lmaganligi ma`qullroq;

O`NB - o`tmishda nikohni buzmagan bo`lishi, ajralgan bo`lmaslik.

OILANING IQTISODIY FUNKSTIYALARI



1.RASM.UY XO'JALIKLARNING UCH SAMARA ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH



Oilaning an'anaviy boshqaruv modelida er-xotinning rollari aniq taqsimlangan bo'ladi :


Er – oila boquvchisi.

Xotin esa, uy xo'jaligini yurgizish, farzandlarni tarbiyalash va oila bilan birga yashaydigan keksa qarindoshlarga qarashga javob beradi.

“OILA BYUDJETINI KIM BOSHQARISHI LOZIM?”

1. Kim oila byudjetiga ko'proq pul keltirsa, o'sha.
2. Oila boquvchisi sifatidagi er.
3. Oila o'choqini saqlashga qudratli xotin.
4. Oilaning kattasi.
5. Oilaning eng aqllisi.
6. Oilani boylikka etaklovchi oila a'zosi.

OILA BYUJETINI REJALASHTIRISHNING «TO'RT KONVERT» USULI



XULOSA

Ushbu bitiruv malakaviy ishi natijalari asosida, qo`yidagi xulosalarga kelindi:

1. Mustahkam oila yili» Davlat dasturi 8 ta ustuvor vazifalardan iborat.

Unda keng ko`lamli iqtisodi chora-tadbirlar ko`zga ko`ringan. 2012 yilda «Mustahkam oila yili» Davlat chora-tadbirlarini amalga oshirishning yakuniy xarajatlari 1 478,7 mlrd. so`m va 114,0 mln. Dollarni tashkil etadi.

2.O`zbekiston Respublikasi “Oilaviy tadbirkorlik to`g`risidagi” Qonunining 3-moddasiga muvofiq oilaviy tadbirkorlik oila a`zolari tomonidan tavakkal qilib va o`z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir.U o`z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi.Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin.Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir.Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3. “Oilaviy ish”ni G`arbda avloddan avlodga o`tadigan merosiy biznes sifatida e`tirof etadilar.Uning asosiy motivastiyasi – kelajak avlodni moliyaviy farovonligini ta`minlash uchun oilaviy ishini tashkil etishdadir. O`zbekistondagi oilalarida odatda farzand va naveralarning kelajagi haqida qayg`urish keng tarqatilgan. U qo`yidagi afzalliklarga ega:

- ❖ Umumiy ish tufayli barcha oila a`zolarini birlashtiradiki,bunday hamkorlik esa oilaning yanada jiplashiga ,mustahkamlanishiga olib keladi.
- ❖ Foydani ko`paytirish va oila byudjetini oshirishga intilish.
- ❖ Yoshlikdan bolalarni biznesga jalb etish imkoniyati vujudga keladi.Biznesni yuritish bo`yicha bilim va ko`nikmalarni ota-onadan, kattalardan o`rganish ko`p hollarda mutaxassislardan oladigan quruq nazariy saboqlardan afzalroqdir.
- ❖ Oilaviy ishni farzandlarga me`ros qoldirib, ularning barqaror va farovon

kelajagini ta'minlash.

- ❖ Oila a'zolar ish bilan bandligi uzoqlarga ish qidirib ketmasdan o'z uyida qolib ishlashni afzal ko'rish.
- ❖ Oila a'zolarining mehnatsevarlik, tejamkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, mas'uliyatdorlik kabi ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarning shakllanishi.

4. Oila vazifalari o'rtasida uning quyidagi iqtisodiy funkstiyalari muhim ahamiyat kasb etadi:

- + iste'molchilik funkstiyasi (tovar va xizmatlarnin so'nggi iste'moli);
- + jamg'arma-investistiyalash funkstiyasi (omonatlar va jamg'armalarning shakllantirilishi);
- + ishlab chiqarish funkstiyasi (uyda iste'mol qilish uchun tovar va xizmatlarini yaratish);
- + mayishi-xo'jalik funkstiyasi (oila a'zolarini o'z-o'ziga mayishi xizmat ko'rsatish, iste'molchilik tovarlarga texnik xizmat);
- + takror ishlab chiqarish funkstiyasi (ishchi kuchi va insoniy resurslarini takror ishlab chiqarish).

5. Oila byudjetini «to'rt konvert» usuli xonadon iqtisodiyoti uchun qiziqarli va naflil bo'lishi mumkin. Bu usuli quyidagi bosqichlardan iborat:

- Bir oylik oilaviy daromadingizni aniqlang.
- Darhol undan 10% ni jamg'arma yo/va investistiyaga ajratib qo'ying.
- Domyi xarajatlar va ijtimoiy chiqimlarini aniqlang.
- Oila daromadining qoldig'i 4,3 ga bo'linadi va 4 ta kovertga solib, navbatba navbat haftalik me'yori bo'yicha foydalang. Bu mablag'lar oilaning haftalik xarajatlarini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi natijasida quyidagi tavsiyalarni beramiz:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi" Qonuninig mazmun-mohiyatini oilalar o'rtasida tushuntirish

ishlarini yo`lga qo`yish o`lkamizda oilaviy biznesni rivojlantirish va qo`shimcha ish o`rinlarini vujudga keltirishga ko`maklashardi.

Ikkinchidan, bitiruv malakaviy ishining 1.4. paragrafida tavsiflangan oila byudjetini rejalashtirishning «to`rt konvert» usulini mahallalar orqali o`zbek xonadonlarda keng targ`ibot qilib joriy etish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, bitiruv malakaviy ishi doirasida yaratilgan “Oilaviy biznesning mohiyati” mavzusini o`qitishning texnologik modelini mazkur mavzuni o`qitishda qo`llash, hamda kasb-hunar kollejlari uchun uslubiy qo`llanma sifatida tavsiya etish.

To`rtinchidan, bitiruv malakaviy ishining 2.2. paragrafida kompyutorning Power Point Presentaion dasturi asosida yaratgan “Oilaviy biznesning mohiyati” mavzusini ko`rgazmali elektron taqdimoti slaydlaridan o`quv jarayonida keng foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

- 1.Ўзбекистон Республикасининг “Оилавий тadbirkorlik тўғрисида” Қонуни.Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 17-сон, 188-модда.
- 2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 27 февралдаги ПҚ-1717-сон «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури тўғрисида” Қарори.
Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2010 й., 10-сон, 99-модда.
- 3.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T: O'zbekiston, 2011.
- 4.Prezident Islom Karimovning “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi.17.02.2012.http://www.press-service.uz/uz/news/show/main/vyistuplenie_prezidenta_respubliki_uz_15/
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi 43- yillik majlisining ochilish marosimidagi nutqi.
[http://www.press-service.uz/uz/news/show/dokladi/posledovatelnoe_prodljenie_kursa_na_1/page/2/](http://www.press-service.uz/uz/news/show/dokladi/posledovatelnoe_prodljenie_kursa_na_1/page/2/.)
.[03.05.2010].112 KB.
- 6.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.T.:O'zbekiston, 2009.
7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi to'g'risida.**09.02.2011.**<http://www.press->

service.uz/uz/news/show/postanovleniya_prezidenta/o_gosudarstvennoye_programme_god_malogo/

8. Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari. T.: Mehnat. 2000.

9. Анализ состава домохозяйств Санкт-Петербурга: итоги Всероссийской переписи населения 2002 года: стат. сб. / Федеральная служба государственной статистики. Выпуск 4. — СПб.: Петростат. 2006. — 60 с.

10. Алексеева О.А. Экономические функции домашних хозяйств в условиях переходного периода: автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.05 / Алексеева О.А.; Институт социально-экономических проблем народонаселения. — М. 2002. — 26 с.

11. Бабаева Л., Нельсон Л. Деловая активность женщин в новых экономических структурах // Социологические исследования, 1992, N 5, с.101-111.

12. Беккер Г. Экономика семьи и макроповедение // США: ЭПИ, 1994, N 2-3.

13. Buribekov U. Oliy va urta maxsus ta'lim tizimini moliyalashtirish // Bozor, pul va kredit, № 12, 2001. 53-54 b.

14. Гуськова М.Ф. Наноэкономика – конечный пункт использования полезности блага. М., Экономические науки. 2008. – 290 с.

15. Домохозяйства, семья и семейная политика / Под ред. Елизарова В.В., Зверевой Н.В.М. Диалог-МГУ. 1997.

16. Домашняя экономика. Сборник / Сост. А.Т.Агатицкая. Свердловск: Сред. урал кн. изд. 1991.

17. Домашнее хозяйство / В.К.Полянский, А.С.Солманов, С.Я.Мухторов и др. – Воронеж: Цент-Чернозем кн. изд., 1991.

18. Дом, хозяйство, семья / Сост. И.Н.Касачев. Ташкент. . Узбекистан. 1992.

19. Котов Э.П. Домашнее хозяйство и бытовое обслуживание. Рига: Авест, 1982.

20. HodiyeV B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N., Muhiddinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. –T.: “O`qituvchi”, 2003.
21. HodiyeV B.Yu va boshqalar. Kichik tadbirkorlik asoslari (o`uv-amaliy qo`llanma) -T.: I.H. TEMPUS “Konsaudit”, 2004.
22. Fayziyev Olim. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim qadam. <http://www.minjust.uz/uz/content.scm?contentId=34823>
23. Мазная Е.А. Домашнее хозяйство в системе экономических отношений общества : дис. ... канд. экон. наук : 08.00.01 Самара, 2006 185 с. РГБ ОД, 61:07-8/1519. <http://www.lib.ua-ru.net/diss/cont/153250.html>
24. Михайлюк В.Б., Старовойтова Г.В. Экономические функции семьи и роль женщины в ее реализации. Одесса. 1991.
25. Митрофанов И.В. Поведение домохозяйств в рыночной и трансформируемой экономиках. Волгоград. 2003.
26. Navro'zzoda B.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni –mustahkam oyila tayanchi. Mintaqada Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muammo va istiqbollari. Anjuman materiallari. Buxoro. 2011.
27. Navro'zzoda B.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – farovon hayot manbasi. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini va jamoyattimiz barqarorligini ta`minlashdagi o`rni va ahamiyati” mavzusidagi mintaqaviy anjuman materiallari. Navoiy. 2011.
28. Oblomurodov N.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari. O`quv qo`llanma. T. 2011.
29. Оила социологияси фанидан маърузалар матни. Тузувчи: профессор. Т.У. Абдуллаев. Фаргона. 2000 йил.
30. Поллак Р. Трансакционный подход к изучению семьи и домашнего хозяйства// THESIS, 1994, N 6.
31. Попов А.И. Семья с позиции экономической науки. Челябинск. МГУК, 1995.

32. Симоненко В.Д., Шелепина О.И. Семейная экономика: Учебник для 7-8 классов общеобразоват.учрежд. Образовательная отрасль “Технология”. М.: Вита-Пресс, 2000.
33. Qulmatov O.A. Tadbirkorlik faoliyati asoslari. Ma`ruza matni. T.: 2001.
34. Rajabov O. Kichik biznes bandlikni ta`minlashning asosiy omilidir. XXI ASR. 7 Dekabr. <http://www.21asr.uz/ozlidep/ozlidep-fraksiyasi/577-kichikbiznes.html>.
35. Ziyonet Axborot Ta`lim tarmog`i. www.ziyonet.uz .